*Семизўт.* Абу Али Ибн Сино янги семизўтни узиб олиб, ширасини тайёрлаб, қон тупурган беморга ишлатган. Ички қон кетиши, кўз ялиғланишида, жигар касаллигида фойдаланган. Шароб билан аралаштирилган семизўт бўтқасини бир ош қошиқдан наҳорга овқатланишдан бир соат олдин истеъмол этишни тавсия қилган. Бу усул билан жигар хасталигини бир ой мобайнида буткул даволашга эришган.

*Шафтоли.* Абу Али Ибн Сино шафтоли мевасини иштаҳа очиш ва ични юмшатиш учун ишлатган. Барги шираси билан яралардаги қуртларни ўлдирган. Қуритилмаган барги ёки гули шираси билан гижжани туширган. Мойини мигрень касаллигига ва қулоқ оғриғига даво қилган.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, “Тиб қонунлари” асарида келтирилган маълумотлар ҳозирги кунда ҳам ўз мавқеини йўқотмаган.

## IBN SINO ASARLARIDA GIGIENAGA OID TADBIRLAR

Nuralieva X.O., Karieva M.T., Maqsudova S.A.

*Toshkent farmatsevtika instituti*

*e-mail: nuraliyeva@mail.ru; kmanzura@yandex.ru, tel. (90)1789286; (97)7117868*

**Dolzarbliqi.** Ajdodlarimiz qoldirgan meroslarni o‘rganish, ularning o‘g‘itlariga amal qilish kelajakni belgilab beradi. Bularga ko‘plab olimu-fuzalolarni, shu jumladan Abu Ali ibn Sinoni ham misol qilib keltirishimiz mumkin. YUrtimizda yashab, tibbiyot ilmidagi yutuqlari bilan butun dunyoga tanilgan ajdodimiz Ibn Sinoning ham oqilona ovqatlanish, to‘g‘ri dam olish, serharakatlilik, umuman gigienik tadbirlar asosida erishiladigan salomatlikni asrash borasida yozib qoldirgan ko‘plab amaliy fikrlari Uchinchi renesans ostonasida turgan yangi O‘zbekiston xalqi uchun ham juda muhimdir. Mamlakatimizda shu kunlarda sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, doimiy jismoniy faollikni ta‘minlash va uni targ‘ib qilish aholining hayot tarziga aylantirish orqali xalqimizni sog‘lom qilish eng muhim vazifalar qatorida qo‘yilayotgani bu muammoga jiddiy yondoshishni talab qiladi.

**Maqsadi.** Ushbu ilmiy tadqiqot ishining maqsadi turli yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olishda Abu Ali Ibn Sino o‘zining «Tib qonunlari» asarida tavsiya etgan va amalda qo‘llagan gigienik tadbirlarini o‘rganishdan iborat.

**Material va usullar.** Buning uchun Abu Ali ibn Sino tomonidan yozib qoldirilgan «Tib qonunlari» birinchi kitobining «Salomatlikni asrash haqida», deb nomlangan uchinchi qismi o‘rganildi, olingan materiallar tahlil qilib keltirildi.

**Natija va taxlil.** Ibn Sinoning shoh asari hisoblangan “Tib qonunlari” birinchi kitobining “Salomatlikni asrash haqida” deb nomlangan uchinchi qismi olimning salomatlikni saqlash borasidagi tibbiy qarashlari nihoyatda chuqurligi va originalligidan dalolat beradi. Ibn Sino sogʻliqni saqlash tadbirlarida birinchi galda badan tarbiya va yaxshi jismoniy harakatlarni, ikkinchi va uchinchi oʻrinlarga ovqatlanish tartibi va uyquni qoʻygan.

Ibn Sino birinchi boʻlib, jismoniy mashqlarning inson organizmini mustahkamlashini ilmiy asoslab berdi. U jismoniy mashgʻulotlarni inson sogʻligini saqlashning bosh omili deb hisoblagan. Uning fikricha:

- organizm jismoniy mashqlar bilan shugʻullanishidan oldin tana toza boʻlishi;
- isteʼmol qilingan ovqat hazm boʻlgan boʻlishi kerak va oʻz navbatida och qoringa jismoniy mashqlar bajarishni tavsiya qilmaydi;

- jismoniy mashqlar bilan doimo moʻtadil shugʻullanib borgan kishi hech qanday davoga muhtoj boʻlmaydi;

- badantarbiya kishini chuqur va ketma – ket nafas olishga majbur qiluvchi harakatdir;
- badantarbiyadan soʻng birdan sovuq suvga to u butun tanani koʻmgunicha shoʻngʻish kerak. Choʻmiluvchiga suv yoqib, unga yomon taʼsir qilmasa, badanida qaltirash paydo boʻlgunicha u suvda qolishini taʼkidlagan.

Ibn Sino yana organizmni toblash jarayonini tabiiy kuchlar – havo, suv va quyoshdan foydalangan holda, jismoniy mashqlar bilan olib borishga katta ahamiyat bergan. Uning fikriga koʻra, ochiq havoda uzoq vaqt yurib, organizmni toblash, harakatlar, sayr qilish, oʻyinlarni jismoniy mashqlar bilan birga olib borish yaxshi samara beradi.

Oʻsmirlarda va yoshi kattalarda organizmni chiniqtirish jarayonlaridan biri sifatida tanani hoʻl sochiq bilan artish, hammomda choʻmilish va quyosh vannalaridan foydalanish shaklida olib borishni tavsiya etadi.

Quyosh vannalari organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, natijada esa inson tetik va bardam boʻladi, organizmdagi ortiqcha yogʻlar eriydi, bosh ogʻrigʻini yoʻqotadi va miyani mustahkamlaydi.

Tanani chiniqtirish vositalaridan yana biri bu – massaj (uqalash) boʻlib, u toliqishni oldini oladigan muhim davolash vositasidir. Ibn Sino uqalashni kuchli – gavidani baquvvat qiluvchi, kuchsiz – gavidani yumshatuvchi, davomli – ozdiruvchi, oʻrtacha – gavidani oʻstiruvchi turlarga ajratadi. Massajdan koʻzlangan maqsad – organlarni zichlash, yumshoq organlarni qotirish va qattiq organlarni yumshatishdan iborat ekanligini taʼkidlaganlar

Ibn Sino oqilona ovqatlanish tadbirlarida quyidagilarga rioya qilish lozimligini uqtiradi:

1. Toʻyib ovqat emaslik
2. Oldin isteʼmol qilingan ovqat oshqozonda xazm boʻlmasdan turib, ustiga yana ovqat emaslik
3. Oziq ovqat maxsulotlarining asosiy tarkibi sabzavotlar va mevalardan tashkil topishi.

Ibn Sino badanning ovqat talab qilishi yoshga bogʻliqligini xam aytib, shunday degan: “Oʻsmirlarda ovqat talab qilish va xazm kuchli boʻladi, qari kishilarda esa buni aksi kuzatilib, ularning quvvatlarida orqaga ketish boʻladi”. Bundan tashqari ovqatlanish klimatogeografik omillarga bogʻliqligi toʻgʻrisida xam fikr bildirgan “SHimolda yashovchi kishilar organizmida ovqat yaxshi xazm boʻladi va ular uzoq umr koʻradilar.” Bu fikrlar yillar davomida koʻplab xorijiy va vatandosh gigienist va dietolog olimlar tomonidan ilmiy jixatdan isbotlangan.

**Xulosalar** 1. Abu Ali ibn Sinoning oqilona ovqatlanish, jismoniy mashqlar va massaj qoidalari toʻgʻrisida yozib qoldirgan tavsiyalari odamlar turmush tarzining tamoyillarining asosiylari hisoblanib, ular hozirgi zamon profilaktik tibbiyotida ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas.

2. Abu Ali ibn Sino oʻz asarlarida oqilona ovqatlanishning gigienik ahamiyati ustida koʻp mulohazalar yuritib, hozirgi zamon tibbiyot ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan.

## ФАРМАЦИЯ СОҲАСИ ТАЛАБАЛАРИГА ТЕХНИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Илхомов Х.Ш. Қодирова Г.А. Расулов А.П.

*Тошкент фармацевтика институти*  
*e-mail: khisamiddin@mail.ru, tel. (97)410-44-58, gulchekhra\_71@mail.ru, (90)316-80-65*

**Долзарблиги:** Ўзбекистон Республикасида ҳар соҳада ишлаб чиқаришнинг ривожланиши, янги корхоналарнинг очилиши, замонавий турдаги махсулотларни ишлаб чиқариш корхоналарининг кўпайиши, уларда замонавий хизматлардан фойдаланиш, Тошкент фармацевтика институти каби нотехникавий олий таълим муассасаларида таълим олаётган талабаларга аниқ ва техника фанларини ўргатиш ва бўлғусидаги касбий фаолиятни амалга оширилиши учун зарур бўлган муҳандислик фанлари бўйича тайёргарлик даражасининг мукамаллаштиришни талаб этади.

**Булардан келиб чиқадиган асосий мақсад,** нотехникавий таълим йўналиши талабалари учун аниқ ва техника фанлари бўйича таълим беришда зарур бўлган билим самарадорлиги ва сифатларини ривожлантириш, уларнинг бўлғуси касбий фаолияти, ҳамда ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган реал масалалар ва ҳолатларда жараён математик моделларини шакллантириш усуллари ва тадқиқот қилиш кўникмаларини ҳосил қилишдан иборатдир.

**Усул ва услублар.** Нотехникавий таълим йўналишида аниқ ва техника фанларини ўзлаштиришдаги қийинчиликлар, 2020 йилда бошланган коронавирус пандемияси ҳам таълим соҳасида ҳам олиб бориладиган фаолият тарзини тубдан ўзгартириб юборилиши, нотехникавий таълим йўналиши талабалари учун таълим тизимида инновацион ғоялар, талабаларнинг базавий билимига мос ҳолда ёндашишни тақазо этади. Талабаларни билимини ошири учун масофадан ўқитишнинг турли усуллари орқали дарсларни ташкиллаштириши, ўқув жараёнида педогогик технологиянинг мустақил ўзлаштириш, талабаларнинг билимларини назорат қилиш ва фанлар интеграцияси каби усул ва услубларидан фойдаланилди.

**Натижалар.** Кузатишлардан, талабаларнинг ўзлаштиришлари, одатий усулдаги ўзлаштиришга нисбатан 15-20 фоизга юқори бўлмоқда. Талабаларга таълим беришда педогогик технологияларнинг юқорида кўрсатилган усулларида фойдаланиш натижасида:

масофавий таълимда талабалар томонидан янги мавзуни мустақил ўзлаштирилиши натижасида дарс самарадорлиги ошди, талабалар ўртасида ўрганилаётган масалаларга когнитив кизикишни шакллантирилишига ва талабаларни масофавий таълимда фаоллаштиришга эришилди;

“Ахборот технологиялари ва жараёнларни математик моделлаштириш” фанини бошқа мутахассислик фанларига боғлаб, тегишли жараёнларни математик моделлаштириш орқали дарсларни олиб бориш натижасида ҳам тажрибавий, ҳам ҳисоблаш амалий кўникмалари ривожлантирилди, фанга нисбатан кизикишлари ортди

**Хулосалар.** Тошкент фармацевтика институти каби нотехникавий таълим ОТМ йўналишлари талабалари учун аниқ ва техника фанларни масофадан ўқитиш жараёнида мустақил таълимга алоҳида эътибор бериш, талабаларнинг билимларини назорат қилишни такомиллаштириш, ўзлаштирилган мавзу бўйича талабаларни ўзаро бир-бирларини назоратини ташкил этиш ва баҳолаш, аниқ фанларни мутахассислик фанлари билан боғлаш каби педогогик усуллар таълим сифатини ошишига катта ёрдам беради.

## ҲАР БИР ИНСОННИНГ РУҲИЙ ОЛАМИ УНИНГ РУҲИЙ ҚУДРАТИДИР

Исмаилов К.К., Юлдашева Л.С.

*Тошкент фармацевтика институти*  
*email: ifk\_tashfarmi@mail.ru*

**Долзарблиги:** Қомусий олим асарлари, ўрта асрда маълум бўлган барча фанларни санаб чиқишга тўғри келади. Алломанинг ушбу бой илмий-маънавий мероси бутун дунё тамаддунига улкан ҳисса қўшганлиги билан “Шайхур-раис”(Олимлар раиси) улкан унвонига ҳақли равишда сазавордир.

Ибн Сино фикрича, фалсафа борлиқ ҳақидаги фандир. Борлиқ эса абадийдир. Оламнинг абадий мавжудлиги ўз навбатида олам ўзининг абадий сабаби ва абадий ҳаракатлантирувчи кучига эгаллигида. Демак, абадий ҳаракатлантирувчи куч, яъни Худо ҳар қандай ҳаракатнинг, ривожнинг асосидир. Ҳамма нарсанинг моҳиятини материя ташкил этади, материя турли-туман шаклларда намоён бўлади. Жисм материясиз бўлмаганидек, материя ҳам шаклсиз бўлмайди. Демак, аллома фикрича, жисм ва унинг шакли бир биридан ажралмас бўлганидек, материя ва шакл ҳам ўзаро ажралмасдир. Материя ҳаракат, фазо ва замон билан боғлиқдир.

Ибн Синонинг таъкидлашича, ҳар бир нарсанинг сабаби ва оқибати бор, оламда инсоният дунёсида ҳеч бир нарса ва ҳодиса ўз-ўзидан, сабабсиз бўлмайди. “Ҳар бир нарсани билиш, - дейди аллома, - у нарсаларнинг сабаблари бўлса, аввало шу сабабларни билиш керак. Тибда соғлиқ ва касалликнинг сабабларини билиш керак бўлади. Соғлиқ, касаллик ва уларнинг сабаблари гоҳо очиқ, гоҳо махфий тарзда бўлиб, унга ҳис, сезги билан эмас, балки белгиларга асосланиб ақл, фикр юриштиш билан етишилади”.

**Мақсади:** Ибн Сино ҳар бир инсон алоҳида олам у мустақил ва яғонадир деб, ҳисоблайди. Айни пайтда у бошқа турдошига ўхшамас олам. Демакки, ҳар инсоннинг ўз руҳий олами, руҳий қудрати мавжуд. Руҳан тетик, руҳан баққуват инсон кучли ва иродали бўлади. Ўзини ҳар қандай зиддиятларда асрай билади. Бунда албатта ақлнинг ҳам роли катта. Инсон ақл кучи билангина ўз мавқеига ва обрўйига эга бўлади, бир, сўз билан айтганда, унинг моҳияти ақлда. Ақл инсон белгилайди. Фақат ақл ҳузур-ҳаловат ва азоб-уқубатни бир биридан ажратади, эҳтиросларни тияди, ёмон одатларнинг ривожланишига йўл қўймайди. Фақат ақлли ва фазилатли киши ҳурматнинг энг олий даражасига лойиқ.

Абу Али ибн Сино олам ва одам ҳақида фикр юритар экан, “Ал-Ишроҳ”-“Нурланиш” номли асарида “Маъад” сўзини ишлатади. Унинг фикрича, маъад – жой, макон ҳисобланади. Маъад – бу нарсалар ва ҳолатларнинг дастлабки жойи бўлиб, нарса ва ҳолатлар бу жойдан ажралиб, кейин унга яна қайтади. Унинг таълимотида жон абадий, тана ўзгарувчан, моддий олам-тана ўз умрини яшаб ўтади ва йўқ бўлади, жон эса бир танадан чиқиб яна бир янги танага ўрнашади. Ана шу нуқтаи назардан жоннинг умри узун ва чексиздир. У абадий айланма ҳаракатга эгадир. Бу фалсафий тафаккурда инкарнация ва реинкарнация деб таърифланади.

**Усул ва услублар:** Улуғ мутафаккир жон нима деган саволга жавоб бера туриб, “Жон танага жойлашган, аммо тананинг ҳолати эмас. Жон тана учун ҳаётий куч бўлиб, уни ҳаракатга келтиради, қон томирларидаги қонни ҳайдаб, барча аъзоларини ҳам ҳаракатга келтиради”, деган хулосага келади.

Ибн Сино жоннинг ҳолати, унинг ҳаракат қонуниятлари хусусида гапирар экан, ўзига хос фалсафий қарашларни ва мутлақо бетакрор тамойилларни илгари суради. Жумладан, маъад жон макони ва ҳолати бўлиб, жон танасидан чиқиб кетганидан кейин яна асл ҳолати ва ва маконига қайтади. Бундай айланма ҳаракатни мутафаккир аввал ва охир, ибтидо ва интиҳо тарзида ифода этади. Вужуд ўлгач, жон бошқа маконга жойлашади. Фикрини давом эттириб, жоннинг моҳияти нур бўлиб, жон маъад ҳолатида нурланади, лекин ҳамма жонлар ҳар хиллигидан уларни тўрт босқичга бўлади.

Биринчи босқичдаги жон бу- ер ҳаётида комилликка интилган инсонларнинг жонидир. Бу инсонлар ҳаётидаги жисмоний ва моддий тўсиқлар қанчалар кучли бўлган бўлса, уларнинг комилликка интилиши ҳам шу қадар кучли бўлган. Бу босқичдаги жонлар тананинг нафс ва ҳирс каби ҳиссиётларини енгиб, ердаги ҳаётда комилликка эришган жонлардир. У дунёда бу жонларнинг жойи жаннатдир. Маъад ҳолатида бу жонлар нурланиб, ўзлари нурга айланади. Ибн Сино бу жонларни нурли жонлар деб атади.

Иккинчи босқичдаги жонлар ҳақиқат ва покланиш йўлини билган жонлардир. Лекин улар танасидаги нафс ва ҳирс ҳиссиётларга қарши кураша олмайдилар. Бу босқичдаги жонлар ердаги ҳаётда комилликка эриша олмаганликлари учун азият чекадилар. Бу жонлар танадан ажралгандан кейин Аллохнинг марҳаматига сазовор бўладилар ва юқори кўтардилар.

Учинчи босқичдаги жонлар ҳеч кимга зарар етказмайдиган, лекин комилликка интилмайдиган инсонлар жонидир. Бу жонлар ҳолати ҳаёт гирдобидида айланаётган хас-чўп ҳолатини эслатади. Комилликка интилмаган жонларнинг ҳолати аянчли бўлиб, улар ҳаёт гирдобидида азият чекишга мажбурдилар. Маъад ҳолатида бу жонларнинг жойи жаннат бўлмайди, лекин улар дўзах азобларидан ҳам ҳолидилар. Уларнинг жойлари аросатдир.

Тўртинчи босқичдаги жонларни мутафаккир гуноҳкор жонлар деб таъриф беради. Бу босқичдаги жонлар ҳаётли даврдида ёмонлик ва зўравонлик қилган гуноҳкор инсонларнинг жонидир. Бу жонларга маъад ҳолатида ўзлари қилган барча ёмонликлар ўзларига қайтиб келади. Демак, маъад ҳолатига нафақат жон, балки унинг барча қилган яхшилик ва ёмонликлари ҳам ўтади. Бу ўринда улуғ мутафаккир, бобаклонимиз Абу Наср Форобийнинг “Инсоннинг моҳияти ақлда, ақлининг моҳияти ҳатти-ҳаракатидадир” деган сўзлари нечоғли ўринлидир. Дарҳақиқат, инсоннинг инсонлик моҳияти ақлда. Унинг феъл-атвори, ҳатти-ҳаракати ақл доирасида юзага келади. Бошқача қилиб айтадиган бўлсак, ақлни қўл билан ушлаб, кўз билан кўриб бўлмайди. Инсон ўз ақли доирасида фикр юритади, муносабат билдиради, ҳатти –ҳаракатини амалга оширади. Фақат у жон орқали ривожланади, шаклланади, кучга тўлиб боради.

**Хулоса:** Ибн Сино хулосаларига кўра, инсон жони ривожланишининг юқори босқичида ўз-ўзини англайди ва бунинг натижасида фаол ақлга етишади. Фаол ақл жоннинг фаолиятидир ва у ташқи оламни акс эттириш ҳолати билан индивидуал ақлдан мутлақо фарқланади. Фаол ақл орқали инсон руҳи оламий руҳга боғланади, инсон жони эса оламий жон висолига етишади. Демак, фаол ақл бу акс эттириш эмас, балки, маҳбубнинг висолига, яъни Аллоҳнинг висолига етишишга бўлган ирода ва муҳаббат кучидир.

Жон ўзини англаган сари инсон маънавий жиҳатдан ўз-ўзини англайди. Ана шу жараёнда у такомиллашади, ривожланади ва ҳар томонлама етук ва баркамол, фаол ва ижодкор шахсга айланади. Жоннинг ўз-ўзини такомиллаштириши, руҳнинг ривожланиб кучга тўлиб бориш жараёни асносида одам-инсон-шахс формуласи ўз ечимини топади. Бошқача қилиб айтганда, ночор, ақлий салоҳияти чекланган, ҳиссиз, қалби бўм-бўш, руҳияти заиф одам жон ва руҳ орқали жамиятнинг фаол кишисига, инсон деган олий кадриятга эга бўлади. Ўзининг ички яратувчилик, бунёдкорлик имкониятларини рўёбга чиқарадиган, ўз ҳаётини ўзи йўлга қўя оладиган шарафли ва шарофатли инсонга айланади.

Бу жараён узлуксиз ва самарали давом этса, инсоннинг ҳаётий тажрибаси бойиб, дунёқараши кенгайиб, интеллектуал салоҳияти ошиб боргани сайин жамоатчиликни ўзига эргаштирадиган, жамиятнинг муҳим ва долзарб муаммолари ечимини топишга қурби етадиган ижтимоий фаол шахсга айланади. Бунинг учун эса инсон жон ва руҳ таъсирида ақлий салоҳиятини кўпроқ намоён этиб, эзгулик йўлини танлаши муҳим аҳамиятга эга.

Аллома фикрича, эзгуликка интилиш инсон ҳаётининг моҳияти ва ҳаётий куч бўлган жон моҳиятини ташкил этади. Жон бу фоний оламдан боқий оламга ўтар экан, у ўзининг асл маконига қайтади ва бу маконда комилликка эришган жон оламий ақлга, оламий руҳга қўшилади. Бу қўшилиш натижасида эса, инсон жони нурга айланади ва малак даражасига кўтарилади.

Шундай қилиб, Ибн Сино фаол ақлни юқори босқичдаги жоннинг фаолияти деб ҳисоблайди.

Алломанинг бундай қарашлари Шарқ фалсафасига хос бўлган қарашдир.

Абу Али ибн Синонинг илмий-маънавий бой меросини ўрганиш бугунги даврга келиб жадал тус олди ва кенг қамровда синошунослик илми ривожланди. “Тиб қонунлари” жаҳоннинг деярли барча етакчи мамлакатларида ўз она тилисида нашр этилиб, тиббиёт ва халқ таъбири соҳаларида кенг қўламда фойдаланилмоқда. Ўзбекистонда Халқ таъбиратига бағишланган халқаро миқёсда илмий-амалий анжуманларни ўтказилиши фикримизнинг ёрқин тасдиғидир.

## **O`RTA ASR SHARQ OLIMLARINING ILM FAN RIVOJLANISHIGA QO`SHGAN HISSALARI**

**Tursunova Z.B., Sultonxodjaeva G.Sh., Murodova A.M.**

*Toshkent farmatsevtika instituti,  
Toshkent davlat transport universiteti,  
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti  
e-mail: farmtursunovaz@mail.ru*

Bugungi kundagi ixtirolar, kashfiyotlarga, o`rta asr sharq olimlarining mehnatlari, izlanishlari va kashfiyotlari asos ekanligi hech kimga sir emas. O`rta asrda falsafa va matematik olimlaridan Aristotel,

Ptolemej va Arximed kabi olimlar bizni o`rab turgan olam haqidagi fikrlarni ilgari surgan bo`lsalar, Gippokrat va Galen tibbiyot sohasida risolalar yozganlar. Ammo ularni o`z vatanlarida bid`atchi deb ayblov qo`yganlaridan so`ng fors ko`rfazlarida qochishga majbur bo`lganlar. U vaqtda Rim imperiyasida rim raqamlari qo`llanilgan. Ammo bu raqamlar hisob-kitob ishlarini olib borishda juda noqulay bo`lgan. Masalan: *LVI* va *CVII* ni hisoblashdan ko`ra, 56 va 107 ni qo`shib 162 ni hosil qilish onsonroqdir. Bu ajoyib hisoblash tizimi “algorizm” deb nomlangan bo`lib, to`qqizinchi asr buyuk matematigi Al Xorazmiy nomi bilan atalgan. O`rta asrdagi sharq olimlari orasida Ibn Sino, Yevropada Avisenna nomi bilan tanilgan. Olim 980 yilda Buxoroda tavallud topgan. Ibn Sino tibbiyot, matematika, astronomiya, iqlimshunoslik va falsafa kabi ko`pgina yo`nalishlar bo`yicha tibbiyot sohasini rivojlanishiga katta hissa qo`shdi. Uning kitoblari “Al Qonun”, “Tib qonunlari” eng keng tarqalgan ilmiy adabiyotlar hisoblanadi. Bu kitoblarda Ibn Sino kasalliklarning aniq tashxisi, ko`pgina jiddiy kasalliklar, 1000ga yaqin turli dori vositalarini va ta`sirlarini yoritib bergan. Yana bir tibbiyot rivojiga o`z hissasini qo`shgan sharq olimlaridan biri Ar Roziy, Yevropada Razes nomi bilan tanilgan. 900 yillarda zamondoshlari orasida dunyoning eng yaxshi shifokori nomiga sazovor bo`lgan. Ar Roziy kasalliklarni davolashni yangi va tez ta`sir etuvchi vositalarini ishlab chiqdi va tibbiyot ensiklopediyasi kitobini yozdi. Ko`p qirrali sharq olimlaridan biri Al Xaysam, matematika, fizika, mexanika va astronomiya sohaslarida ham ko`pgina ishlar olib brogan. Ibn Al Xaysam optika sohasida ham ko`p izlanishlar olib borib, yorug`lik buyumdan inson ko`ziga qarab yo`nalganligini aytgan va fotokamera yaratilishiga asos bo`lgan. Shuningdek ko`z tuzilishi va uning har bir qismining vazifasini birinchilardan bo`lib tushuntirib bergan olimdir. Bundan tashqari ko`rish qobiliyatiga psixologik faktorlarning ta`sirlarini birinchi bo`lib o`rgangan ham Ibn Al Xaysamdir. Ibn Al Xaysam 200 dan ziyodroq ilmiy asarlarni yozib qoldirgan va bu kitoblar dunyoning ko`pgina tillariga tarjima qilingan.

## **СХОДСТВО МЕЖДУ ЛЕЧЕБНОЙ ТЕОРИЕЙ ИБН СИНА И ЛЕКАРСТВЕННОЙ ТЕОРИЕЙ НА ВОСТОКЕ. МЕДИЦИНА: НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ХОЛОДНЫХ И ТЕПЛОТЕХНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ПРЕПАРАТОВ**

**Youngil Song**

*Rep. of Korea, Korea International Cooperation Agency Uzbekistan office  
O`zbekiston-Koreya sharq tabobati markazi, Toshkent  
e-mail: filmmaker21c@gmail.com; +99871 262 12 13*

Исламская медицина и восточная медицина имеют много сходств в своих методах лечения и лекарственных теории. В исламской медицине распыления лекарственных трав, кровотечения или раскладки использовались в качестве методов лечения. За исключением иглоукалывания, он очень похож на восточную медицину. Использование лекарственных трав в соответствии с принципом тепла управления аналогично для восточной медицины. Гален, который был преуспевлен исламской медициной, описал четыре элемента холода и термической обработки для каждого препарата и разделил степень от слабых до сильных, от 1 до 4 градусов. Например, акация (родная акация) имеет 3 градуса сухости. Он объяснил, что имеет 1 степень холодности, но моющая акация будет иметь 2 градуса холодности. Воспользуясь свойствами этих препаратов, врачи использовали препараты для баланса жидкостей и субстратов организма. Ибн Сина разделил наркотики в холодные агенты, чтобы охладить тело и теплые агенты, чтобы согреть тело.

Использование этих препаратов очень похоже на метод лечения, используя вкус и ци травы в восточной медицине. В области травяной медицины свойства препаратов разделены на четыре типа энергии: холодный, горячий, теплый и крутой. Это классификационная система гербологии, основанная на Инь и Ян, а физиологическая активность на человеческом теле выражена четырьмя способами. Препараты с горячими свойствами и препаратами с холодными свойствами имеют сильное действие, а препараты с теплыми свойствами и прохладительными свойствами имеют нежное действие и медленно исцеляются. Другими словами, это лечение, которое не только увеличивает физиологическую функцию, но и удаляет патологические факторы путем сопоставления характеристик человеческого организма с природными препаратами на основе четырех энергии, что аналогично теории исламской медицины. Видно, что метод вывода эффективности препаратов в исламской

медицине также похож на восточную медицину. В гербологии исламской медицины физические характеристики лекарственных трав, таких как размер, форма, цвет, прикосновение и вкус, стали важными критериями для выбора для терапевтических целей. Например, поскольку он напоминает форму почки, она используется для лечения камней в почках или корне, который напоминает человеческое тело или плод, напоминающий человеческое яичко для улучшения сексуальной функции. Этот метод аналогичен травяной теории восточной медицины, которая отличает лекарственные свойства лекарственных трав путем формы, цвета, прочности и вкуса.

## ЕТИЛГАН АСАЛ

**Исмоилов И.**

*Шаҳар 1-сон болалар клиник шифохонаси, Тошкент  
e-mail: hamzacom@yandex.ru, тел. +998909596063*

Етилган асалнинг фойдали эканлигини каттаю кичик барча билишади. Элладанинг буюк до-нишманди Пифагорнинг фикрича асални ҳар куни истеъмол қилгани сабабли у қўп яшаб қариллик гаштини сурган экан. Қадимий Фракиянинг Абдер шаҳрида туғилган файласуф, жуда ўткир мута-факкир Демокрит Абдерский бир асрдан ортиқ яшаган ва умрбоқийлик сирини мунтазам равишда асал истеъмол қилиш билан боғлаган.

Афсонада туғилиб Бухорода мохир шифокор бўлиб етишган Ҳусайн ибн Сино ўзининг ўлмас тиббий илмий асарларининг (трактат) аксариятида асалариларнинг бетакрор маҳсулоти бўлган, “ҳаёт шарбати”, узоқ умр кўриш “малҳами” деб номланган - етилган асални қўллаш тўғрисидаги фикрларини келтирган. Машҳур шифокор ўзи тайёрлаган дори воситаларининг аксарияти таркибига етилган соз асални асосий ташувчи маҳсулот сифатида қўшган.

Мисол:

Шолғом уруғини туйиб, майдалаб,  
Асал билан қўшиб, қилсанг истеъмол.  
Ичингни юмшатар, заҳарни кесар,  
Белингни бақувват қилади дарҳол.

*Ҳусайн ибн Сино*

Асал - нафақат ширинлик, балки соғлиқдаги кўплаб муаммоларни бартараф этишдаги ёрдам-чидир.

Ҳозирги давр ривожланган тиббиётининг барча йўналишларида (Конвенционал, анъанавий, ортодоксал, расмий деб аталадиган классик тиббиёт ва ноқонвенционал, ноанъанавий ва норасмий деб аталадиган альтернатив ва комплементар тиббиёт) етилган асалнинг инсон организмга жуда фойдали эканлигини такидлашишади. Халқ табобатида тавсия этадиган шифобахш неъматларнинг подшоҳи сифатида асал эътироф этилади.

Турли ўсимлик гулларидан йиғилган, тоза сувда эритилган, етилган тоғ асали суюқлигининг таркибини инсон конининг суюқ қисми (зардоб) таркибига яқинлиги катор илмий асарларда келтирилган.

Етилган асал таркиби инсон ҳаёти жараёни, саломатлигини сақлаш ва фаол умр кўриш давомийлигини узайтириш учун керакли биокимёвий моддаларга бой. Асал таркибини энгил ҳазм бўлувчи ва қувват манбаи бўлган углеводлар 70-80%, шунингдек оксиллар 0.3-0.4%, сув 20% гача, аминокислоталар ва кўп миқдорда органик ва неорганик бирикмалар ташкил қилади. Етилган асал таркибидаги С, В1 В2, В3, В6, РР, К, Е, Н ва бошқа дармондорилар, фитонцидлар, ароматик моддалар, ҳар хил минераллар инсон организмдаги темир, кальций, магний, органик кислоталар ва протеинни энгил сингишига ижобий таъсир қилади. Асал таркибидаги Алюминий, Мышьяк, Барий, Бор, Бромид, Кадмий, Калий, Хлорид, Фторид, Иодид, Свинец, Литий, Молибден, Никель, Рубидий, Кремний, Стронций, Сера, Ванадий, Цирконий, Темир, Марганец, Мис, Цинк ва бошқа минераллар организмнинг эҳтиёжининг маълум қисмини қондиришга етади.

Асалнинг фармакологик хусусиятлари: Асал шифобахш хусусияти билан кўп касалликлардан фориғ қилади, инсон саломатлигини мустаҳкамлайди, бактерияларга қарши курашади, яллиғла-нишни камайтиради, балғамни кўчишида қатнашади, зарарсизлантириш жараёнида қатнашади, иммунитетни мустаҳкамлайди, ҳар хил захарланишлар ва инфекцияларга қарши курашишда организмнинг ҳимоя кучини ошишини таъминлайди.

Етилган асални истеъмол қилиш, асални даволловчи восита тарзида қўллаш учун албатта, терапевт, педиатр, эндокринолог, диетолог ва бошқа шифокорлар билан маслаҳатлашиш фойдалидир.

## YURAK, QON-TOMIR TIZIMI UCHUN BEQIYOS SHIFOBAXSH NE'MAT

**Rahmatullaev I.R., Yakubov I.Yu., Axadjonov M.M., Nazarova Yo.X.**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Organizmdagi tabiat tomonidan in'om etilgan biokimyoviy jarayonlar dasturining me'yoriy ishlashi shubhsiz sog'u - salomlikni, uzoq umir kurishni kafolati ekanligi hechkimga sir emas. Faqat, buning uchun istemol qilinayotgan ozuqa va meva – chevalarning keraklisini, uning miqdor va sifatiga e'tiborli bo'lib, bilib tanavvul qilish kerak holos. Organizmga quvvat bo'luvchi shifobaxsh ne'matlar esa etarlicha. Ana shunday tabiat in'omlaridan biri anjir hisoblanadi. Anjir juda totli va shirali meva bo'libgina qolmay, ming dardga davo ne'mat hisoblanadi. Chunki anjir mevasi vitaminlar va minerallarga boy. Uning tarkibida kaliy, kaltsiy, fosfor, magniy, temir, mis hamda qator bir qancha vitaminlar borligi tadqiqotlarda aniqlangan.

Vitaminlar va makro – mikroelementlar (100 gr)			
Beta-karotin	5,6 mkg	Kaltsiy	162,0 mg
Vitamin E	0,4 mg	Temir	2,0 mg
Vitamin K	15,2 mkg	Magniy	68,0 mg
Vitamin C	1,3 mg	Fosfor	67,0 mg
Vitamin B <sub>1</sub>	0,1 mg	Kaliy	680,0 mg
Vitamin B <sub>2</sub>	0,1 mg	Natriy	10,0 mg
Vitamin B <sub>3</sub>	0,7 mg	Rux	0,6 mg
Vitamin B <sub>4</sub>	15,3 mg	Mis	0,3 mg
Vitamin B <sub>5</sub>	0,3 mg	Marganets	0,5 mg
Vitamin B <sub>6</sub>	8,2 mkg	Selen	0,6 mkg

Har kuni anjir iste'mol qilish organizmning kaltsiyga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Anjir tarkibidagi kaliy elementi arterial qon bosimi bir me'yorda bo'lishiga xizmat qiladi va yuqori qon bosimida yaxshi foyda beradi. Anjir qon tomirlarini kengaytiradi, shu boisdan ham uni venalarning varikoz kasalligida ham iste'mol qilish foydali. Meva tarkibidagi fitsin moddasi qonning quyushishini bartaraf etadi, tomirlardagi tromblar so'riladi. U iste'mol qilinayotgan shakarning yog'ga aylanishini oldini oladi. Aritmiyada anjir, mayiz, asal, yong'oqdan teng miqdorda olib, go'shtqiyimalagichdan chiqariladi va asal bilan aralashiriladi. Kuniga 2 mahal, ovqat orasida 1 osh qoshiqdan iste'mol qilinadi. Yurak ishemik xastaligida 150 g qora olxo'ri, 300 g anjir mevalari, 2 qoshiq bodom, maydalangan apelsin po'stlog'i, ta'bga ko'ra asal qo'shila-di. Tayyor aralashmaning 2 qoshig'ini 1 stakan qatiq yoki kefirga aralashirib, har kuni ertalab yeyiladi. Bu aralashma yurakni baquvvat qilib, organizmga kuch beradi.

Bundan tashqari menopauza jarayonini boshdan kechirayotgan ayollarga ko'proq anjir yeyish tavsiya etiladi. Anjirda, ayniqsa, uning po'stloq qismida ko'krak saratonining oldini oluvchi moddalar bor. Anjirning quritilgan mevasidan 4 tasiga bir stakan sut quyib, qaynatilib, 30 daqiqa davomida tindirib qo'ying. So'ng blenderda anjirli sutni atalab oling hamda 3 qismga bo'lib, kun davomida 3 martadan iching. Tomoq yo'llarini yumshatuvchi, yo'talni bartaraf etuvchi ushbu tabiiy vositani bolalarga bersangiz ham bo'ladi.

Surunkali qabziyatda anjiming 8 ta quruq mevasini ikki stakan suvda 20 daqiqa o'rtacha olovda qaynatiladi. So'ng yarimta limon suvi, bir choy qoshiq zanjabil (imbir) kukuni qo'shib aralastiriladi. Shisha idishga quyib, qopqog'ini zich yopib, salqin joyda saqlanadi. Uni 14 kun davomida 3-4 mahal 1 osh qoshiqdan ovqat orasida qabul qilish ich qotishi muammosini bartaraf etadi.

## LIFE AND WORK OF ABU BAKR AR-RAZI

**Umarov B.B.**

*Bukhara State University*

*e-mail: umarovbako@mail.ru, tel. (90) 511-90-40*

Abu Bakr Muhammad ibn Zakaria Ar-Razi (865-925) is the author of *The Book of Secrets* and *The Book of Secrets of Secrets*. «The Secret of Secrets» Ar-Razi begins with ideas about the world. Original and unique is the trace left in the science of the medieval East by the outstanding chemist and physician Muhammad Zakaria Ar-Razi. Abu Bakr Muhammad ibn Zakariya Ar-Razi, known in Europe by the name of Razes, was born in the Persian city of Ray, near modern Tehran. Although Ar-Razi was one of the Arabic and Farsi-speaking scientists, whose works were well known not only to the naturalists of Iran, Egypt, Spain, but also to many thinkers of the West, where he was known under the Latinized name Razes. In Persia, he received a versatile education and, in particular, studied philosophy, metaphysics, poetry and alchemy. According to ibn Usbiy, this thinker wrote more than 238 books and scientific articles, 22 of which are devoted to solving various problems of chemistry.

At the age of 30, Ar-Razi went to Baghdad, where he studied medicine. He soon became famous as a very skillful doctor; led a clinic in Raya, then in Baghdad. Ar-Razi was well acquainted with ancient science, medicine and philosophy; he left works on philosophy, ethics, theology, logic, medicine, astronomy, physics and alchemy - out of his 238 works, 61 have come down to us; many works of Ar-Razi were translated into Latin in Europe in the 10th-13th centuries.

This is what Ar-Razi had: goblets, flasks, basins, glass dishes for crystallization, jugs, pots, burners, oil lamps, braziers, ovens (athanors), files, spatulas, ladles, scissors, hammers, tongs, sand and water baths, fabric, woolen, hair and silk filters, alembics, aludels, funnels, cocurbites, mortars with pestles, metal sieves. All this immediately came to life when it was launched into the immediate business of melting, decanting, filtering, digestion, distillation, sublimation, amalgamation, dissolution, coagulation.

Philosophical teaching. At the heart of the philosophical concept of Ar-Razi, close to some varieties of Gnosticism, is the doctrine of the five eternal principles: «creator», «soul», «matter», «time», «space»; the “reason” sent by the “creator” inspires the “soul”, captivated by “matter”, with the desire for liberation; the path to this is the study of philosophy. The atomism of Ar-Razi is close to the atomism of Democritus; Ar-Razi believed in absolute space, absolute time and recognized the plurality of worlds. All things, in his opinion, consist of indivisible elements (atoms) and empty space between them. The size of the empty space between the atoms of the four principles themselves determines their natural movement. Thus, water and earth move downwards, while fire and air move upwards. Ar-Razi for the first time in the history of chemistry classified substances and divided them into three large classes: earthy (mineral) substances, vegetable substances, animal substances.

The main works of Ar-Razi in medicine are the book «Al-Havi» («Comprehensive book on medicine») and the 10-volume «Medical book dedicated to Mansur» - a kind of medical encyclopedia in Arabic. Being translated into Latin, they served as a guide for doctors for several centuries. Ar-Razi also compiled instructions on the construction of hospitals and the choice of a place for them, wrote works on the importance of the specialization of doctors (“One doctor cannot treat all diseases”), on medical care and self-help for the population (“Medicine for those who do not have a doctor”).

## **PUNICA GRANATUM URUG'INING KIMYOVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSHLIK HUSUSIYATLARI**

**Rahmatullaev I.R., Yakubov I.Yu., Nazirtosheva R.M., Axmedova Z.K.**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Punika granatum ya'ni anor xalq tabobatida bir qancha hastaliklarni davolashda keng foydalanib kelingan. Jumladan uning mevasi, po'stlog'i va guli istisqo (vodyanka), qo'tir, yo'tal, ichburuq va sariq kasalliklariga davo sifatida qo'llaniladi. Uning sharbati shamollash, zangila (lavsha, tsinga), ishtaxani ochuvchi, kamqonlik, ateroskleroz, bronxial astma, angina va diabet kasalliklarida iste'mol qilish tavsiya etiladi. Anorning po'stini choyga qo'shib ichilsa, u uyqusizlik dardiga uchraganlarga va asab tizimi toliqqan va stress holatda yurgan insonlarga foydalidir. Shuni aytib o'tish joizki, anor ovqat ratsioniga kiritilgan bo'lsa va uni iste'mol qilib turilsa, yurak hastaliklari yuzaga kelishini va ayollar ko'krak raki xastaligini oldini olishi mumkin. Anor donalari esa yuqori qon bosimli kasallar uchun juda foydali, u bosimni sekin-asta tushishiga yordam beradi.

Shularni xisobga olib, anor mevasining tarkibi o'rganilganda vitamin va makro – mikro elementlarga boy ekanligi aniqlanildi.

<b>Vitaminlar va makro – mikroelementlar (100 gr)</b>			
Vitamin E	0,55 mg	Kaltsiy	9,0 mg
Vitamin K	16,2 mkg	Temir	0,2 mg
Vitamin C	10,8 mg	Magniy	13,0 mg
Vitamin B1	0,1 mg	Fosfor	34,0 mg
Vitamin B2	0,1 mg	Kaliy	232,0 mg
Vitamin B3	0,2 mg	Natriy	2,0 mg
Vitamin B4	7,1 mg	Rux	0,3 mg
Vitamin B5	0,4 mg	Mis	0,2 mg
Vitamin B6	0,1 mg	Marganets	0,1 mg
Vitamin B9	38,0 mkg	Selen	0,6 mkg

Shuningdek anor mevasi organizmdagi oqsil, yog' va uglevodlar almashinuvini yaxshilaydi. Faringit, gingivit, stomatit, bronxial astma kasalliklarida davo bo'ladi, qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlar ovqatlanishdan avval anor sharbatini iste'mol qilsalar, qondagi qand miqdori kamayadi. Anor qon bosimini tushiradi. Choyga qo'shib ichilsa, asabni tinchlantirib, tungi uyquni me'yoriga keltiradi. Buyrak, quloq, ko'z va ginekologik a'zolar yallig'lanishining oldini oladi. Anor siydik haydovchi vosita bo'lib, ayniqsa, nordon buyrak va siydik yo'lidagi toshlarni tushirishda yordam beradi. Ishtahani ochadi.

Tish og'rib qolsa, anor va uning po'stlog'ini asalga aralashtirib iste'mol qilish foydalidir. Shuni eslatib o'tishimiz kerakki, oshqazon yara kasalligi mavjud insonlarga anorni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi. Chunki uning nordon navlarida kislotalilik yuqori bo'ladi. Anor sharbatini ichish tishlar emalini yemirilishiga olib kelishi sababli, unga ozgina qaynatilgan suv qo'shib ichish maqsadga muvofiqdir.

## **GRATASNING MAKRO VA MIKROELEMENTLAR TARKIBI**

**I. R. Rahmatullayev, I.Yu.Yakubov**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

“Gratas” do'lananing lotin tilidgi nomi bo'lib, bu kuchli degan ma'noni anglatadi. Do'lanaga qadimda bunday nomning berilishi bejiz e'vas. Chunki unung tarkibida organizmning immune tizimini faollashtiruvchi, kuch quvvat beruvchi, ayniqsa shamollash va yuqumli hastaliklarni bartaraf e'tuvchi vitamin C ning e'ng ko'p miqdorda bo'lishidan tashqari, organism salomatligining mustaxkam bo'lishida

muxim ahamiyatga e'ga bo'lan Selen e'lementining bo'lishi g'oyat qimmatli ahamiyat kasb e'tadi.

Selen, boshqa elementlari kabi, tanada juda muhim vazifalarni bajaradi.

1. Selen antioksidant sifatida, saraton, yurak muammolari, erta qarish kabi jarayo'nlarni tezlashtiruvchi erkin radikallarni olib tashlashga yordam beradi.

2. Selen immun tizimining ishlashi uchun muhim activator xisoblanadi.

3. Selen-qalqonsimon bezning faoliyati uchun yod kabi funktsiyani ado e'tuvchi e'lement sifatida kata ahamiyatga e'ga.

Do'lana boshqa mevalardan o'zining xushxo'rligidan tashqari shifobaxshligi bilan ham ajralib turadi. Xalq tabobatida do'lananing bargi, gullari va mevasidan ishtaxa ochuvchi, yaxshi kayfiyat, yurak ishini yaxshilab bardamlilik va quvvat baxsh etuvchi shifobaxsh o'simlik sifatida alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, har bir dorivor o'simliklarning shifobaxshlik xususiyati ularning kimyoviy tarkibiga bog'liq. Shu paytgacha juda ko'p o'simliklarning shifobaxshligini ularning tarkibida vitaminlar va boshqa biofaol moddalar borligi bilan tushuntiriladi. Hozirgi kunda esa, o'simliklarning nafaqat vitaminlari va biofaol moddalari, balki ularning makro va mikro elementlar tarkibi ham g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'lib qoldi.

Chunki, har bir inson organizmining o'ziga xos mukammal dasturi asosida amalga oshib boradigan kimyoviy reaksiyalarining boshqaruv tizimlari bo'lib, ularni me'yoriy amalga oshishi ma'lum biokatalizatorlarga bog'liqdir. Bioaktivatorlar, ya'ni makro- va mikroelementlar ayni shu biokatalizatorlarni faollashuvini ta'minlovchi omillardandir. Zero organizmda ma'lum bir element miqdorining yetarli bo'lmasligi, albatta u yoki bu kimyoviy jarayonlarning susayishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida shunga bog'liq xastaliklarni namoyon bo'lishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan biz o'z oldimizga shifobaxsh do'lana o'simligi mevasining kimyoviy elementlar tarkibini, uning o'sayotgan tuproq va suv sharoitlariga ko'ra qanday bo'lishligini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik. Quyida Saturin -2 atom-absorbatsion spektrofotometr yordamida Qamchiq dovoni va Oqbilol (Farg'ona) dagi do'lana mevalarining elementlar tarkibini o'rganish bo'yicha olingan natijalar keltirilgan.

#### Do'lana mevasining elementlar tarkibi

Mikroelementlar (mkg/g)				Makroelementlar (mg/g)													
K	Mg	Ca	Fe	Zn	Cu	Mn	Ba	Se	Ni	J	Pb	Sr	Al	Mo	Co	Cr	B
<b>Qamchiq dovoni</b>																	
12,9	1,1	2,8	0,04	0,75	2,8	0,35	1,8	116,0	1,0	0,5	0,4	0,5	0,4	3,1	3,6	2,5	18,0
<b>Oqbilol (Farg'ona)</b>																	
9,1	0,8	1,7	0,02	0,39	2,3	0,29	0,7	93,1	1,1	0,6	0,3	0,4	0,5	0,9	2,5	1,4	11,1

Olingan natijalardan Qamchiq dovoni suv bo'yi qiyaliklarida o'sadigan do'lana mevasining tarkibida makro- va mikroelementlar miqdori Oqbilol (Farg'ona) tekisliklaridagi dolanaga nisbatan ancha ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi. Buning sababi Qamchiq dovoni suv bo'yi qiyaliklaridagi tuproqda makro- va mikroelementlar miqdorining Oqbiloldagiga nisbatan yuqoriligidadir. Bu shifobaxsh ne'mat xalq tabobatida g'oyat qadrlanib, uning damlamalari va qiyomi yurak faoliyatining buzilishi, qon bosimining ortishi, yuqimli xastalikka chalingan bemorlar yuragining quvvatsizlanishi kabilarda shifokorlar tomonidan tavsiya qilinadi.

## NA'MATAK MEVASINI VITAMINLAR TARKIBINING O'ZGARISHI

**Rahmatullayev I.R., Yakubov I.Yu.**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Ibn Sino ta'rifiga ko'ra, na'matakning barcha turi tozalovchi va suyultiruvchi xususiyatga ega. U quloqdagi qurtlarni o'ldiradi, quloq shang'illashi va g'uvillashiga, tish og'rig'iga foyda qiladi. Na'matak guli, mevasi, urug'i, bargi va ildizi xalq tabobatida qadimdan keng qo'llanilib kelingan. Uning mevasidan

tayyorlangan damlama o'pka sili, terlama, o't qopining yallig'lanishi, me'da-ichak, buyrak-qovuq kasalliklarini davolashdi ishlatiladi. Uning mevasi tanaga quvvat bag'ishlaydi, modda almashinuvini yaxshilaydi. Namatak mevasidan tayyorlangan damlama tanaga quvvat bag'ishlab, uning chidamligini oshiradi, yo'talni ketkazadi, hazm yo'llari yallig'lanishini davolaydi, jigar og'rig'idan xalos etadi. Sovuq mizojli va qon bosimi past bo'lganlarga na'matak damlamasi eng shifobaxsh choy o'rmini bosadi. Qattiq sovuqda qo'l, oyoq va boshqa a'zolari shamollatganlar uning damlamasidan tez-tez ichib turishsa, tanani qizdirib, zaharli moddalarni peshobga haydaydi. Qovuq va buyrak shamollaganda ham na'matak qaynatmasidan bemorga tez-tez issiq holida ichirish shifo bo'ladi. Na'matak damlamasi semizlikni sekin-asta bartaraf qiladi. Sababi u ichni surib, yuvib tozalaydi, kichik tahoratni tezlashtiradi.

Na'matakning mevasi juda ko'p shifobaxsh unsurlarga boy. Uning mevasi tarkibida C, P, K, B guruh vitaminlar, E (urug'ida), karotinlar, flavonoidlar, qand, olma kislotasi, limon kislotasi, pektin, oshlovchi moddalar, likopin, riboksantin va kaliy, temir, marganets, fosfor, kaltsiy, magniy tuzlari bor. Shuning uchun ham na'matak mevasi asosida tayyorlangan damlama iste'mol qilinganda kamqonlik, tinka qurib darmonsizlik holatlarining tez tiklanishi bejiz emas. Na'matak mevasi yumshoq qismining moyli ekstrakti hisoblangan karotolin turli ko'rinishdagi teri kasalliklari (tropik yaralar, dermo'tidlar, qo'tir, qichima, ekzema, psoriasis va boshqalar)ni davolashda keng foydalaniladi. Uning urug'idan olinadigan to'yinmagan moy kislotalari, karoteno'idlar, tako'fero'llar bilan ham turli kasalliklarni davolash mumkin. Shu bilan birga na'matak damlamalari bolalarda kuzatiladigan mayda toshmalarni, yiringli-septik asoratlarni, o'tkir yuqumli kasalliklar - qizilcha (skarlatina)ni, terlama (tif)ni va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Modomiki, na'matak yuqorida aytib o'tganimizdek bir qancha xastaliklarni oldini olish va davollashda qollanilar ekan, demak undan foydalanishda uni aynan qanday sharoitda saqlagan ma'qul, yoki uni shu saqlash davomida shifobaxshlik hususiyati, ya'ni kimyoviy tarkibi o'zgaradimi, yo'qmi kabilarni bilish albatta muhim hisoblanadi.

Shularni hisobga olib biz na'matak mevasini saqlanish davomida bo'ladigan tarkibiy o'zgarishiga oid analiz natijalarini keltiramiz. 100 gr. na'matak mevasining o'rtacha ozuqaviy qiymati 162 kkal. ga teng bo'lib, shuncha miqdor meva tarkibida oqsil- 1,6 gr., uglevodlar- 38 gr., lipidlar (asosan urug'ida)- 0,3 gr., vitaminlardan askorbin kislotasi (C) - 450 mg., pirido'ksin (B<sub>6</sub>)- 0,1 mg., retin'ol (A) - 220 mg., fillaxino'n (K) - 0,8 mg., alfa to'ko'fero'l (E, urug'ida) - 1,8 mg., elementlardan natriy- 5 mg., kaliy - 430 mg., temir- 1,2 mg., magniy - 70 mg. ligi aniqlangan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki na'matak shifobaxshligining asosiy xususiyati undagi vitaminlar ko'pligi bilan asoslanishi mumkin (asosan vitamin - C va vitamin-A). Shu nuqtai nazardan bizning tadqiqotimizda asosiy e'tibor na'matakning saqlanish davomida undagi vitaminlar tarkibi (A, C)ning o'zgarishi asos qilib olindi. Avvalo, shuni aytish kerakki Qamchiq dovonidan yig'ib olingan na'matak mevasi tarkibidagi vitamin C va A lar miqdori Oqbilol (Farg'ona)dan yig'ib olingan na'matak mevalarinikidan ancha kam ekanligi ma'lum bo'ldi. Buni Qamchiq dovonidagi haroratning nisbatan pastroq ekanligi bilan tushuntirish mumkun. Mevalarning vitaminliligi, ularning to'yimliligi va mazasining shirin bo'lishi Quyosh haroratiga bog'liqligi bizga avvalgi ko'p tadqiqotlardan ma'lum. Shuningdek, yangi terilgan na'matakda vitaminlar salqin joyda quritilib saqlanganida ularning vitaminlari miqdori 10 oygacha, oftobda quritilgan na'matak mevalarining vitaminlar tarkibi esa 3 oygacha juda kam o'zgarganligi ma'lum bo'ldi.

## **СЕКЦИЯ 2. РАЗРАБОТКА ИННОВАЦИОННЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ, КОСМЕТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И БАД К ПИЩЕ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИХ КАЧЕСТВА**

### **INNOVATSION DORI PREPARATLARI, KOSMETIKA VA BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALARINI ISHLAB CHIQUISH, ULARNING SIFATINI TA'MINLASH**

#### **ГЛАЦЕМБРИН ГЕЛИНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ АНИҚЛАШ**

**Саидов Р.Р., Кариева Ё.С., Сотимов Ғ.Б.**

*Тошкент фармацевтика институти  
e-mail: saidovravshan1991@gmail.com, тел.: 909748241*

**Долзарблиги.** Қадимги замонлардан кенг қўлланиладиган ҳамда бугунги кунда ўз аҳамиятини йўқотмаган доривор ўсимликлардан бири бу қизилмия (*Glycyrrhiza glabra*) ўсимлигидир. Ушбу ўсимликнинг тиббиёт учун аҳамиятини юқорилиги ЎзР ВМ 2018 йил 27 январдаги 63-сон ва 2019 йил 15 февралдаги 138-сон қарорларини имзоланиши билан исботланади.

Қизилмиянинг асосий биологик фаол моддаси глицирризин бўлиб, ўсимликнинг илдизларида энг кўп (23% гача) миқдорда сақланади. Шунингдек, флавоноидлар глиционид А ва Б, глюкоза (15,2% гача), сахароза (11% гача), крахмал, кумаринлар, алкалоидлар, танинлар, стероидлар, эстрадиол, С, В витаминлари, К, Са, Fe, Si, Sn тузлари мавжуд.

Ушбу ўсимликнинг ер устки қисмидан ЎзР ФА акад. С. Юнусов номли Ўсимлик моддалар кимёси институти олимлари томонидан глацембрин субстанцияси олинган. Бугунги кунда Тошкент фармацевтика институтида ушбу субстанция асосида гел дори шаклини ишлаб чиқиш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

**Мақсад.** Глацембрин асосида тайерланган гелнинг сифат ва миқдор кўрсаткичларини аниқлашдан иборат бўлди.

**Материаллар ва усуллар.** Гелнинг сифат назоратини амалдаги меъёрий хужжатлар асосида олиб борилди: РФ ДФ XIV нашри, European Pharmacopoeia, 9<sup>th</sup> edition. Бунда гелнинг органолептик кўрсаткичлари, чинлиги, бир хиллиги, ҳароратга ва центрифугирлашга бўлган турғунлиги, гелнинг 1:10 нисбатдаги сувли ажратмасининг рН кўрсаткичи, қиздирганда йўқотилган оғирлик, ҳамда таъсир этувчи модданинг миқдори аниқланди.

**Олинган натижалар.** Таҳлил қилинаётган гел субстанциянинг ўзига хос хидга эга жигарранг ковушқоқ масса. Гелни сувли ажратманинг (1:10) рН кўрсаткичи 6,45 га тенг, яъни у тери ва шиллик каватларга суритилганда ноҳўя таъсир кўрсатмайди.

Гел ҳароратнинг ўзгариши ва центрифугирлашга турғун эканлиги аниқланди ҳамда қиздирилганда йўқотилган оғирлик 12,04% ташкил қилди. Дори воситаларнинг асосий сифат кўрсаткичларидан бири – бу таъсир этувчи фаол моддаларнинг миқдоридир.

Глацембрин гелининг миқдорий таҳлили спектрофотометрик усулда 292 нм тўлқун узунлигида пиноцембринга нисбатан флавоноидлар йиғиндисига нисбатан олиб борилди. Таҳлил натижасига асосан ушбу кўрсаткич 54,6% га тенг бўлди. Глацембрин гели илк бор ишлаб чиқилганлиги учун биологик фаол моддаларнинг миқдори 50% кам бўлмаслиги белгилаб олинди.

**Хулоса.** Глацембрин гели барча текширилган сифат ва миқдор кўрсаткичлари бўйича меъёрий хужжатлар талабларига мос келади.

## DETERMINATION OF THE CRYSTAL STRUCTURE OF ACTIVE ANTI-TUBERCULOSIS

Faxriddinova N.Y., Usubbaev A.M., Usubbayeva Sh.M.

*Tashkent Pharmaceutical Institute*


*e-mail: nilufarfaxriddinova12@gmail.com, tel: +998909732552*

**Relevance:** In the technological processing of active substances in powder form, their physicochemical and technological properties are taken into account. Physicochemical and technological parameters of active substances depend primarily on the size and shape of the particles.

**Objective:** FA of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The first research in the development of the composition and technology of a tablet drug with anti-tuberculosis effect from the active substance of the supromolecular complex "monoammonium and mono-potassium salts of isoniazid and glycyrrhizic acid" obtained by scientists of the Institute of Bioorganic Chemistry named after O. Sodiqov.

**Methods and Techniques:** Our research began with the determination of the crystalline shape of the particles of the active substance, in microscopic research, in the implementation of crystallographic work.

**Results:** The results of an experiment to determine the crystalline structure of an active substance with anti-tuberculosis effect are shown in Figure.



**Conclusions:** Thus, for the first time, the crystalline structure of the active substance particles with anti-tuberculosis effect was determined using an electron microscope. The results of the experiments obtained showed that the substance prof. E.E. According to Borzunov's crystallographic classification, it belongs to the group of low-porosity substances - plate, slag, flaky, friable, difficult to concentrate. It has been proved that it is not possible to obtain tablets from active substances with such a crystalline structure using direct pressing technology. The results of the experiment show the need to choose the type and amount of scientifically based excipients in the tablet, as well as the use of pre-wet granulation technology.

## ПОЛИКОМПЛЕКСНЫЙ КОМПОЗИТ НА ОСНОВЕ НАТРИЙКАРБОКСИ-МЕТИЛЦЕЛЛЮЛОЗЫ С КАРБОПОЛОМ – ПЕРСПЕКТИВНЫЙ МАТЕРИАЛ КАК ОСНОВЫ ДЛЯ МЯГКИХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ

<sup>1</sup>Инагамов С.Я., <sup>2</sup>Норкobilова Н., <sup>2</sup>Ахмадов Н.Ф., <sup>2</sup>Нурова Н.Д.

<sup>1</sup> *Ташкентский фармацевтический институт,*

<sup>2</sup> *Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

*e-mail: sabitjan1957@mail.ru*

**Актуальность.** Исследованию многокомпонентных систем – полимерным комплексам уделяется большое внимание, так как они широко применяются в качестве флокулянтов, реагентов при решении экологических задач, для создания разделительных мембран, биосовместимых полимерных систем медицинского назначения, эффективных структурообразователей дисперсных систем, в частности почв, грунтов и как основы для мягких лекарственных препаратов в фармацевтике.

**Целью** настоящих исследований является установление кинетических закономерностей образования связи между полисахаридом натрия карбоксиметилцеллюлозы и карбополом и их исследование.

In this study, we developed doxorubicin (DOX) conjugated, gelatin crosslinked HA injectable hydrogel (HA-G-DOX) and further analyzed the physicochemical properties of the biomaterial. The gel preparations were performed with different molar ratios of HA, gelatin, and DOX (1:0.1-1:0.05-0.25 mol) in diverse volumes and types of solvent systems (water, dioxane, DMSO, and DMF). Optimal conditions for obtaining injectable hydrogels with expected physicochemical parameters were selected by combining the changeable conditions of the reaction. Washing, centrifugation, and dialysis methods were used to purify the obtained hydrogel samples from by-products. The samples were prepared were analyzed structurally and physiochemically with IR spectroscopy, UV spectroscopy, rheological testing, scanning electron microscopy (SEM), and differential scanning calorimetry (DSC) methods. In the IR spectra of the prepared injection hydrogel samples, the characteristic signals corresponding to the O–H, N–H, C6–H, amide-II, C–O–C, and C–C bonds from HA, gelatin, and DOX were observed at 3200-3600, 2900, 1556, 1060 and 600-894  $\text{cm}^{-1}$ , respectively. The presence of the HA in the gel was proven by specific signals of *N*-acetyl group C=O appeared at 1659  $\text{cm}^{-1}$  and by carboxylate ion C=O bonds at 1633  $\text{cm}^{-1}$ . In addition, characteristic signals for the symmetric and asymmetric valence vibrations of DOX C=O and C=C (aromatic ring) were observed at 1721  $\text{cm}^{-1}$  and 1560-1650  $\text{cm}^{-1}$ , respectively, indicating the existence of the drug in the hydrogel. Changes in the intensity of peaks from amide (I/II/III) bonds at 1310-1558  $\text{cm}^{-1}$  are evincible for the presence of gelatin in the material. The loaded DOX amounts (0.25-0.5%, wet wt.) in the HA-G-DOX hydrogels were measured by UV spectrophotometric method. The viscosimetric studies indicated that the hydrogels prepared possess 2.3-4.7 Pa·s at 25°C (62.5 rpm). SEM observations demonstrated that the hydrogel samples have morphological structures having latticed porosity, which are typical for polysaccharide-based hydrogels. In the DSC analyses, HA-G-DOX hydrogels exhibited stability differing from the starting materials.

In summary, DOX conjugated, gelatin crosslinked HA-G-DOX hydrogels were developed and characterized by physicochemical properties. The presence of the parent materials with chemical bondings in

the gel materials was proven by the instrumental methods. Morphological studies demonstrated that the hydrogel samples have structures with latticed porosity, which are typical for polysaccharide-based hydrogels. The samples prepared are under investigation regarding their *in vitro* and *in vivo* biological properties.

## DORI VOSITALARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Aliyeva N.M., Samigova N.X.

*Toshkent farmasevtika institute*  
*e-mail: nodiraaliyeva23@gmail.com, tel.(90)3297971*

**Dolzarbli:** Zamonaviy farmatsevtika sanoatining ustuvor yo'nalishlaridan biri - yangi dori vositalarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan vaqt, xarajatlar va xavflarni kamaytirishdir. Yangi dori vositasini ishlab chiqish va bozorga chiqarish jarayoni odatda 10 yildan ortiq davom etadi va investitsiya qilingan mablag'larning umumiy miqdori 800 milliondan 2 milliard dollargacha bo'lishi mumkin. Ammo investitsiyalarning mavjudligi har doim ham ilmiy tadqiqot va tajribalarning muvaffaqiyat kaliti degani emas.

**Maqsad:** Bunday vazifalarni hal qilishda matematik modellashtirishdan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ushbu usul yordamida dori vazifalarini aniqlash, farmakologik xususiyatlarning optimal kombinatsiyasiga ega bo'lgan molekullarni tanlash va natijada rivojlanishning har bir bosqichida to'g'ri va eng muhimi, asosli tanlov qabul qilish mumkin. Model ma'lum bir ob'ektning qanday ishlashini tushunish; uning tuzilishi nima, ichki aloqalar, asosiy xususiyatlar, rivojlanish qonuniyatlari, o'z-o'zini rivojlantirish va atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri; ob'ekt yoki jarayonni boshqarishni o'rganish, eng yaxshisini aniqlash, berilgan maqsadlar va mezonlarni boshqarish usullari; ko'rsatilganlarni amalga oshirishning bevosita va bilvosita oqibatlarini bashorat qilish, ob'ektga ta'sir qilish usullari va shakllari aniqlash uchun kerak.

**Usul va uslublar:** Zamonaviy usullar dori vositalarini ishlab chiqishning turli bosqichlarida matematik modellardan foydalanishga imkon beradi. Masalan, fiziologiya, biokimyoviy va organizmda sodir bo'ladigan jarayonlarni tartibga solish bo'yicha barcha turdagi ma'lumotlarga asoslangan biologik modellashtirish preparatning maqsadi bilan o'zaro ta'sirini va uning organizmda tarqalish tezligini miqdoriy aniqlash imkonini beradi. Matematik usullar orqali farmakokinetika (dorilarning organizmdagi xatti-harakati) bilan birga farmakodinamika (dorilarning organizmga ta'siri)ni modellashtirish mumkin. Farmakokinetikaning asosiy ko'rsatkichi – bu vaqtga qarab qon plazmasidagi preparat kontsentratsiyasining o'zgarishidir. Shunga ko'ra, egri chiziq juda oddiy matematik ifodalar bilan tasvirlanadi. Agar, dori vositasi tabletka shaklida qabul qilinadigan bo'lsa, unda eng oddiy ikkita differentsial tenglama bilan ifodalanadi. Keyingi qadamda differentsial tenglamalarning shunday parametrlarini izlash kerakki, model va tajriba ma'lumotlari o'rtasidagi optimal nisbatni olish mumkin bo'lsin. Bitta bemorda buni qilish juda oddiy. Ammo boshqa bemorlar uchun bu parametrlar mos kelmasligi mumkin. Aholi uchun modelni umumlashtirishga statistik usullar yordam beradi, bunda ikki turdagi og'ishlar hisobga olinadi: biri umumiy, ya'ni o'lchovlarning aniqligi va texnikasi bilan belgilansa, ikkinchisi insonning individual xususiyatlari bilan bog'liq. Shaxsiy xususiyatlar (jins, irq, yosh va boshqalar) asosida mutaxassislar bu turlardan qaysi biri preparatning xatti-harakatlariga ta'sir qilishini aniqlaydi va ularni modellarga kiritadi. Bunday model bir kishi uchun emas, balki aholi uchun yo'naltirilgandir.

**Natijalar:** Farmakodinamikani modellashtirish uchun ikkita asosiy usul qo'llaniladi: tezkor javob modeli va kechiktirilgan javob modeli. Buning sababi shundaki, preparat biokimyoviy ko'rsatkichlarga darhol yoki ma'lum vaqt (qondagi preparatning eng yuqori kontsentratsiyasi uning ta'sirining eng yuqori nuqtasiga to'g'ri kelmagan)dan keyin ta'sir qilishi mumkin. Bitta tenglamadan tashkil topgan modellar barcha omillarni hisobga olgan murakkab tizimlardir. Sinovning birinchi fazasida olingan maksimal ma'lumotga ko'ra, ikkinchi va uchinchi fazalardagi tadqiqotlar qanday bo'lishi kerakligini aniqlash mumkin.

**Hulosalar:** Ishonch bilan aytish mumkinki, matematik modellashtirish yangi dori vositalari yaratish jarayoni samaradorligini oshirishning eng istiqbolli usullaridan biri. Bugungi kunda tadqiqotning dastlabki bosqichlarida qaror qabul qilishni takomillashtirish uchun va klinik dasturlarning dalillarga asoslangan bosqichlarida muvaffaqiyatsizlik xavfini kamaytirish uchun bir qator innovatsion matematik usullar ishlab chiqilgan. Ayniqsa preparat dozasi tanlashda modellashtirishning hissi juda katta.

## **СЕКЦИЯ 3. СТАНДАРТИЗАЦИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ, ХИМИКО-ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ И ТОКСИКОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ**

### **DORI VOSITALARINI STANDARTLASH, FARMATSEVTİK VA TOKSIKOLOGİK KIMYOVIY TAXLIL**

#### **СИБАЗОН ДОРИ ВОСИТАСЕНИ КИМЁ-ТОКСИКОЛОГИК ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ**

**Юлдашев З.А., Абдукаримова Ҳ.А.**

*Тошкент фармацевтика институту  
e-mail: habdukarimova@list.ru тел: +998908148856*

**Долзарблиги:** Мамлакатимизда кучли таъсир этувчи ва гиёҳванд моддаларга бўлган қизиқишлар аҳоли ўртасида турли хилдаги салбий оқибатларни келиб чиқишига сабаб бўлмоқда. Республикада улғайиб келаётган ёш авлоднинг турли зарарли одатдалари орасида тамаки чекиш, гиёҳванд воситаларини қабул қилиш, алкоголь ичимликлар ичиш ва турли компьютер ўйинлари билан бир қаторда психотроп моддаларга ружу қўйиб истеъмол қилиш ҳолатлари кўпайиб қайд этилган. Гиёҳванд моддалар устидан назоратнинг кучайтирилиши психотроп дори воситаларини нотиббий мақсадларда фойдаланиш ҳолатлари кузатилди. Ушбу психотроп моддалар тиббиётда марказий асабтизими касалликларини даволашда ишлатилса, нотиббий мақсадларда эса кайф қилдирувчи, гиёҳванд моддаларининг таъсирини кучайтирувчи сифатида ишлатилади. Шу жумладан, Тошкент шаҳар божхона бошқармаси томонидан 2021 йил 10 ой даврида психотроп ва кучли таъсир этувчи моддаларнинг ноқонуний айланиши билан боғлиқ 15 та ҳолат аниқланган бўлиб, булардан 400 га яқини психотроп таъсирга эга таблеткалар, 5 кг дан ортиқ кучли таъсир этувчи моддалар ва 13 мингдан ортиқ номаълум кучли таъсир қилувчи дори воситаларининг ноқонуний айланувига чек қўйилган. Ушбу дорилар жумласига кирган сибазон (диазепам) дори воситасининг сунистеъмоли асосан вояга етмаган ёшлар ўртасида кенг тарқалганлиги жамиятимиз учун оғир муаммоларнинг келтириб чиқаради. Ушбу юз бераётган муаммоларнинг ечимини топиш масалалари суд-кимё амалиётида суд-тиббий экспертларига ишнинг долзарблигини белгилаб беради.

**Ишнинг мақсади:** 1,4-бензодиазепин гуруҳига кирувчи сибазон (диазепам) дори моддаси таркибидаги тинчлантирувчи таъсир этувчи моддасини юпқа қатлам хроматографик усулида таҳлил қилиш.

**Усул ва услублар:** Ишнинг дастлабки босқичида сибазон дори воситасининг адабиётларда келтирилган таҳлил усул услублари юзасидан маълумотлар тўпланди. Ушбу маълумотлар асосида юпқа қатлам хроматография усулида таҳлил олиб борилди. Бунинг учун 5мг сибазон таблеткасидан 0,1 гр аналитик тарозида аниқ торма олинди ва 100 мл 95% этил спиртда эритилди. Тайёр эритма 100мл ўлчов колбасига этил спирти билан намланган фильтр қоғоздан ўтказилди ва шу эитувчи билан белгисигача етказилди. Тайёр эритма “Сорбфил” пластинкасининг старт чизигига шиша найча орқали нуқта кўринишида томизилди. Текширилувчи модда пластинканинг старт чизигидан 10 см баландликка кўтарилган хона ҳароратида қуритилди. Сўнгра хроматографиялаш учун эритувчилар системаси сифатида хлороформ-ацетон (20:10) нисбатдаги аралашмаси солинган хроматографик камерага туширилди. Моддаларнинг тўпланиб жойлашган ўрнини аниқлаш учун очувчи реактивлар сифатида алкалоидларнинг умумий чўктирувчи реактивлари Мунъе бўйича модификацияланган Драгендорф, Марки, Вагнер каби эритмалардан фойдаланилди.

**Натижа:** Сибазон (диазепам) дори воситасини ЮҚХ усули ишлаб чиқилди. Эритувчилар системаси сифатида хлороформ-ацетон (20:10) нисбатдаги аралашмаси ва моддаларни жойлашган ўр-

нини аниқлаш учун очувчи реактивлар сифатида Мунъе бўйича тайёрланган Драгендорф, Вагнер, Марки реактивлари танланди. Олиб борилган таҳлил натижасида Мунъе бўйича тайёрланган Драгендорф реактиви билан Rf қиймати 65,0, Вагнер реактиви билан Rf қиймати 60,0 тенг қўнғир рангдаги турғун доғлар ҳосил бўлганлиги кузатилди. Марки реактиви таъсирида ҳеч қандай ранг ўзгариши кузатилмади.

**Хулоса:** 5 мг Сибазон (диазепам) таблеткаси таркибидаги таъсир этувчи моддасини аниқлаш учун ЮҚХ таҳлил услуби ишлаб чиқилди. Таҳлил натижалари суд-кимё амалиётида ушбу дори воситасидан ўткир заҳарланиш содир бўлганда суд-тиббий таҳлилларни олиб бориш учун қўллашга тавсия этилди.

## INDAPAMIDNI YUQORI SAMARALI SUYUQLIK XROMATOGRAFIYASI USULIDA ANIQLASH SHAROITLARINI ISHLAB CHIQISH

**Abdullabekova N.A., Usmanaliyeva Z.U.**

*Toshkent farmatsevtika institute*

*e-mail: nargizachemist1987@mail.ru, tel. (97) 447-23-29*

**Dolzarlighi.** Indapamid diuretik дори preparatidir. U notiazid sulfonamid hosilalari guruhiga kiradi va indol halqasini saqlaydi. Farmakologik xususiyatlari bo'yicha u tiazid diuretiklarga yaqin. Indapamidning antigipertenziv xususiyatlari arteriyalar devorining egiluvchanligini yaxshilanishi va arteriolalarning qarshiligini, shuningdek qon tomirlarning umumiy periferik qarshiligini kamayishi bilan bog'liq. Indapamid preparatining дори shakli – ta'siri uzaytirilgan, plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar. Ta'sir etuvchi modda tabletkani ichidagi matritsa tizimida joylashgan, bu indapamidni asta-sekin ajralib chiqishini ta'minlaydi. Indapamid tabletkadan sekin ajralib chiqadi va me'da-ichak yo'llarida tez va to'liq so'riladi. Ovqat so'rilish tezligini biroz tezlashtiradi, ammo so'rilgan дори preparatning miqdoriga ta'sir qilmaydi. Ko'p marta qabul qilish, qabul qilishlar orasidagi intervallarda дори preparatining qondagi konsentratsiyasining farqlarini kamayishiga yordam beradi. Indapamid plazma oqsillari bilan 79% bog'lanadi. Yarim chiqarilish davri eliminatsiya bosqichida 14 dan 24 soatgachani tashkil qiladi. To'yinish holatiga 7 kundan keyin erishiladi. Indapamid organizmdan asosan peshob bilan (70%) va ahlat bilan (22%) faol bo'lmagan metabolitlari shaklida chiqariladi. Dozaning faqat 5% dan 7% gachasi peshob bilan o'zgartirilmagan holda chiqariladi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan xolda, sud-kimyoy amaliyotida kimyo-toksikologik jihatdan yanada sezgir usullarni ishlab chiqish dolzarb muammodir. Kimyo-toksikologik tadqiqotlar va sud-kimyoy ekspertiza amaliyotida yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usuli ko'p qo'llaniladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Ushbu tadqiqotning maqsadi kimyo-toksikologik va sud-kimyoy ob'ektlarda yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida indapamidni tahlil qilishning mo'tadil sharoitlarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

**Usullar va uslublar:** Uslubni ishlab chiqish uchun Amerikaning "Agilent Technologies" korxonasi ishlab chiqarilgan "Agilent 1100 series" rusumli o'zgaruvchan to'lqin uzunligi 190 dan 600 nm gacha bo'lgan UB detektor bilan jihozlangan suyuqlik xromatografidan foydalanildi. Aniqlash 243 nm to'lqin uzunligida amalga oshirildi. Tahlilni oktadetsimsilam bilan bog'langan silikagel sorbent bilan to'ldirilgan kolonkada (4,6×150 mm) o'tkazildi. Zarracha hajmi - 5 mkm. Mobil faza - atsetonitril:0,15% sirka kislotasi eritmasi (35:65), oqim tezligi -1,3 ml/min. Kolonka harorati xona harorati bilan teng.

Tahlil quyidagicha olib borildi: 0,01 mg indapamid 25 ml o'lchov kolbasiga solindi va asetonitril : 0,15% sirka kislotasi eritmalar aralashmasi (35:65) bilan eritildi. Eritmaning hajmi mobil faza bilan belgisigacha yetkazildi. Tayyorlab olingan eritmada 1ml alikvot olinib, 25 ml hajmli o'lchov kolbasiga solindi va eritmaning hajmi mobil faza bilan belgisigacha yetkazildi. Olingan indapamid eritmasidan 20 mkl hajmda olib xromatografiya qilindi. Indapamidni miqdorini aniqlash uchun xromatografik cho'qqi balandligini moddaning konsentratsiyasiga bog'liqlik chizmasi tuzildi. Buning uchun tarkibida 1-25 mkg indapamid standart moddasini saqlagan ishchi eritmalar tayyorlandi. Ushbu eritmalarining namunalari mikroshprits yordamida 20 mkl hajmda xromatograf injektoriga ketma-ket yuborildi va xromatografiya qilindi. Tajriba uchun olingan modda miqdorlari va ularga mos keluvchi xromatografik cho'qqi maydon yuzalariga bog'liqlik asosida kalibrlash chizmasi asbob boshqaruv dasturi orqali tuzildi.

**Natijalar:** Indapamidni yuqoridagi sharoitda xromatografiya qilinganda, ushlanish vaqti 9,31 daqiqani tashkil qildi. Ishlab chiqilgan tahlil sharoitda yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida standart eritma tarkibidagi indapamidning miqdori aniqlandi. Bunda indapamidni miqdoriy tahlili 1-25 mkg konsentratsiya oralig'ida tuzilgan kalibrlash chizmasi orqali aniqlandi. Indapamidning YuSSX usulida aniqlash chegarasi 1 mkg/mkl tashkil etdi. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida aniqlangan indapamid standart eritmasidagi modda miqdori 92% tashkil etdi.

**Xulosa:** o'tkazilgan tadqiqotlar asosida yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida indapamidni aniqlashning mo'tadil sharoitlari tanlab olindi.

## **ҚҲЙИ МОЛЕКУЛЯР БИОЛОГИК ФАОЛ БИРИКМАЛАРНИ МОДИФИКАЦИЯСИ УЧУН МЎЛЖАЛЛАНГАН РЕАКЦИОН ФАОЛ ВА БИОПАРЧАЛАНУВЧАН КРАХМАЛ ХОСИЛАЛАРИ СИНТЕЗИ**

**Абдурахманов Ж.А.<sup>1</sup>, Хабибуллаев Ж.А.<sup>1</sup>, Шомуротов Ш.А.<sup>1,2</sup>,  
Ахмедов О.Р.<sup>1</sup>, Тураев А.С.<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>УзРФА Биорганик кимё институти,  
<sup>2</sup>Тошкент фармацевтика институту  
e-mail: ibchem@uzsci.net;*

Сўнги йилларда турли касалликлар терапиясида организмга ножўя таъсири кам, узок муддат таъсир кўрсатувчи яхшилланган хусусиятли дори воситаларини олиш тобора ортиб бормокда. Бу ўринда амалиётда қўлланилувчи дори воситаларни полимер табиатли бирикмалар билан модификациялаш орқали макромолекуляр доривор тизимлар олиш алоҳида ахамият касб этади. Бундай макромолекуляр тизимлар олишда полимер ташувчини тўғри танлаш мухим хисобланади. Бу ўринда табиий полимерлардан, жумладан полисахаридлардан фойдаланиш мухим ахамиятга эга. Полисахаридлар табиий полимер табиатли бирикмалар бўлиб, улар организмда осон биопарчланиш хусусиятига эга, биомойил, ножўя таъсирга эга эмаслиги улардан макромолекуляр доривор тизимлар олишда полимер ташувчи сифатида қўллаш учун идеал объектлардан бири хисобланади. Мана шундай полисахаридлардан бири – крахмал бўлиб, у гликозид боғлари билан бирлаштирилган қўплаб глюкоза бирликларидан ташкил топган полисахарид. Ушбу полисахарид қўпчилик яшил ўсимликларнинг энергия манбаи хисобланади. Крахмал инсон рационидаги энг кенг тарқалган углевод бўлиб, буғдой, картошка, маккажўхори, гуруч каби асосий озик-овкат маҳсулотларида қўп миқдорда учрайди.

Крахмални полимер ташувчи сифатида кенг миқёсда қўллаш учун уни функционализациялаш яъни унинг макромолекуласига маълум функционал гуруҳларни киритиш зарур. Мана шундай функционализациялаш усулларида бири периодат оксидлаш хисобланади.

Ушбу тадқиқотнинг максади қуйи молекуляр биологик фаол бирикмаларни модификацияси учун мўлжалланган реакцион фаол ва биопарчаланувчан крахмал хосилалари синтез қилишдан иборат.

Тадқиқотларимизда объект сифатида картошка крахмалидан фойдаланилди. Крахмални функционализациялаш мақсадида периодат оксидлаш реакцияси олиб борилди. Олинган маҳсулотлар структураси ва хусусиятлари физик-кимёвий тадқиқот усуллари ёрдамида ўрганилди. Маҳсулот таркибидаги реакцион фаол альдегид гуруҳлар миқдори спектрофотометрик усулда ва йодометрик титрлаш орқали аниқланди.

Маълумки, полисахаридлар, жумладан крахмал периодат оксидланганда глюкопираноза халқасидаги С2-С3 боғ узилиб, диальдегид хосилалар хосил бўлади. Тадқиқотларимизда крахмални периодат оксидланиш реакциясининг боришига реакция шароитининг, жумладан реакция давомилиги, мухит рНи, оксидловчи концентрацияси ва харорат каби омилларнинг таъсири ўрганилди.

Тадқиқотлар оксидловчи модданинг концентрацияси крахмалнинг оксидланиш тезлигига ва молекуляр параметрига таъсир қилиб, оксидловчи модданинг концентрланган эритмаларида реакция олиб борилганда реакциянинг тез бориши ва хосил бўлган альдегид гуруҳларининг карбоксил гуруҳларигача оксидланиши ва ҳаттоки макромолекуланинг парчланиши кузатилди. Бу ҳолат муайян молекуляр параметрли маҳсулот олиш имкониятини бермади. Шунинг учун реакцияларда

оксидловчи модданинг суюлтирилган эритмалари билан олиб борилди.

Тадқиқотлар натижасида таркибида 45-77 мол% альдегид гуруҳлари тутувчи намуналар олинди. Ушбу намуналар макромолекуляр дори тизимлар олишда ташувчи полимер сифатида фойдаланиш мумкин.

## КОЛИЧЕСТВЕННОГО ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЛЕВОФЛОКСАЦИНА В АНТИБАКТЕРИАЛЬНОМ СРЕДСТВЕ «ЛЕВОДОН»

Абрекова Н.Н., Атамуратов Ф.Н., Бекназарова Н.С.,  
Мухамматова С. Ж., Сагдуллае Б.Т.

*Институт биоорганической химии им.А.С. Садыкова  
email: info@biochem.uz, тел: 262-35-40*

Разработка эффективных антибактериальных лекарственных препаратов, обладающих минимальными побочными действиями и необходимым терапевтическим свойствам, является важной задачей в фармацевтике, при лечении инфекционных заболеваний.

Ранее нами была получен «Леводон», представляющий полимерный комплекс фторхинолонового средства – левофлоксацин с поливинилпирролидоном. В исследованиях доказана его выраженная антибактериальная активность и способность пролонгированного действия левофлоксацина при пероральном или внутривенном введении.

**Целью исследования** была разработка метода количественного определения содержания левофлоксацина в комплексе, с использованием метода высокоэффективной жидкостной хроматографией (ВЭЖХ).

**Материалы и методы.** Количественный анализ проводили на хроматографе фирмы WuFeng (Китай) с УФ-детектором (колонка Discovery HSC18), с подвижной фазой: 0,1% ортофосфорная кислота: ацетонитрил (4:1), с 0,3% добавкой триэтиламина, со скоростью потока-1 мл/мин, при длине волны-295 нм. Количественное содержание определяли по следующей формуле:  $X = S_1 \times m_0 \times P / S_0 \times m_1$ ; где  $S_0$  -среднее значение площадей пика субстанции левофлоксацина, вычисленное из хроматограмм;  $S_1$  -среднее значение площадей пиков левофлоксацина испытуемых комплексов;  $m_0$  -масса навески субстанции левофлоксацина, в мг;  $m_1$  -масса навески испытуемых комплексов, в мг;  $P$  -содержание левофлоксацина в рабочем, стандартном образце (PCO), в %.

**Полученные результаты:** разработан метод количественного определения левофлоксацина в его полимерном комплексе. Установлено, что содержание фторхинолона коррелировалось в зависимости от количества взятых исходных компонентов. Так, при соотношениях левофлоксацин: поливинилпирролидон=0,1:1,0; 0,25:1,0; 0,5:1,0; 1,0:1,0 содержание фторхинолона составляло, соответственно - 12,3%, 25,4%, 37,2%, 38,5%.

**Выводы:** в результате экспериментальных работ разработан метод определение левофлоксацина в полимерном комплексе «Леводон», позволяющий количественно и качественно оценить полученный продукт, что может быть использовано, как в научных, так и практических целях.

## ЛУПИНИННИГ ГЕТРОЦИКЛИК ХАЛҚА ТУТГАН ЯНГИ ТИОЭФИРЛАРИ СИНТЕЗИ

Юлдашев Х.А.<sup>1,2</sup>, Ачилов Э.М.<sup>1</sup>, Бабаев Б.Н.<sup>1,2</sup>


<sup>1</sup>Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,

<sup>2</sup> ЎзР ФА академик О.С. Содиқов номидаги Биоорганик кимё институти  
e-mail: elbekachilov4@gmail.com

**Долзарблиги.** Илмий адабиётлардан маълумки, лупининнинг мураккаб эфирлари орасида вируслар, ўсма, сил ва оғрикка қарши фаолликка эга моддалар, холинэстеразаларнинг самарали ингибиторлари аниқланган. 1,3,4-Тиадиазол хосилалари кенг спектрдаги биологик фаолликка эга.

Ҳозирда тиббиёт амалиётида Ацетазоламид, Метазоламид ва Цефазолин препаратлари диуретик ҳамда антибиотик сифатида қўлланиб келинмоқда.

**Мақсад.** Илмий адабиётда лупининнинг 1,3,4-тиадиазол халқаси тутган ҳосилалари, хусусан, 2,5-димеркапто-1,3,4-тиадиазол, 5-меркапто-3-фенил-1,3,4-тиадиазол-2-тион қолдиғи тутган бирикмалари учрамагани боис, уларни синтез қилишни режалаштирдик.



**Материаллар ва усуллар.** 2,5-димеркапто-1,3,4-тиадиазол ёки 5-меркапто-3-фенил-1,3,4-тиадиазол-2-тион калийнинг ацетондаги эритмасига эквивалент миқдорда  $K_2CO_3$ , каталитик миқдорда KI қўшиб 3 соат давомида қайнатилди, реакция жараёни ЮҚХ усулида назорат қилинди. Унуми 60% ни ташкил қилди. Реакция унумига эритувчи ва ҳароратнинг таъсирини аниқлаш мақсадида жараён ДМФ эритмасида 65 °C 4 соат давомида олиб борилганда реакция унуми 50% ташкил этди. Моддаларнинг тозалик даражаси юқори самарали суюқлик хроматографияси усулида текширилганда улар мос равишда 89,9% ва 87,6% ни ташкил қилди. Олинган моддаларнинг тузилиши ИҚ- ва УБ-спектрлари ёрдамида тасдиқланди.

**Олинган натижалар.** Синтез қилинган ва олиниши мўлжалланаётган моддаларнинг биологик фаоллиги спектри PASS онлайн (prediction activity spectrum for substance) тизимида прогноз қилинганда, улар протеасомал АТФаза ингибитори бўлиши ( $P_a < 0,839$ ;  $P_i \leq 0,010$ ), яъни катта эҳтимоллик билан илик плазмаси хужайралари ракига қарши фаолликга эга бўлиши мумкинлиги кўрсатилди.

**Хулоса.** Шундай қилиб, лупининнинг 2,5-димеркапто-1,3,4-тиадиазол ва 5-меркапто-3-фенил-1,3,4-тиадиазол-2-тион қолдиғи тутган ҳосилалари синтез қилинди, моддаларнинг тузилиши ИҚ- ва УБ-спектрал усуллар, тозалиги эса юқори самарали суюқлик хроматографияси ёрдамида тасдиқланди.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ТОКСИКОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ АНТИМИКРОБНОГО ГЕЛЯ НА ОСНОВЕ ГУАНИДИНСОДЕРЖАЩИХ ПРОИЗВОДНЫХ ПЕКТИНА

Ахмедов О.Р., Филатова А.В., Шомуротов Ш.А., Тураев А.С.

Институт биоорганической химии АН РУз  
e-mail: akhmedov.oliy@gmail.com, тел. (90) 904-78-38

**Актуальность.** В клинической практике наиболее распространёнными методами, используемых для лечения инфицированных ран считается назначение лекарственных средств местного применения, действие которых направлено против микроорганизмов, находящихся в очаге заражения. Несмотря на широкий ассортимент химиотерапевтических средств большинство из них имеют такие недостатки как низкий спектр антимикробной активности, токсичность, замедляют регенерацию ран и вызывают аллергические реакции. В целях создания новых антимикробных соединений, обладающих низкой токсичностью и высокой эффективностью, нами синтезированы производные пектина, содержащие в макромолекулярной цепи гуанидиновые группы. Наличие антимикробных свойств синтезированного производного пектина требовало разработки геля на его основе. Выбор гелевой основы для синтезированной антимикробной субстанции поясняется тем, что разработан-

ная мягкая лекарственная форма удобна в применении, сохраняет свою консистенцию при температуре кожи человека и способна медленно высвободить действующее вещество в инфицированном очаге воспаления. Поскольку, исследование острой токсичности новых биологически активных соединений или лекарственных препаратов относится к общепринятым фармакологическим процедурам нами была поставлена задача изучения воздействия геля при местном применении.

**Цель.** Исследование токсикологических свойств, потенциального антимикробного геля на основе гуанидинсодержащих производных пектина, предназначенного для лечения инфицированных ран, путем местного применения.

**Материалы и методы.** Изучение острой токсичности разработанного геля проводили на белых беспородных крысах (самцах), массой тела  $200 \pm 20,0$  г (ГОСТ 32373). 0,5 и 1% гель наносили на кожу в дозах 1000 мг/кг, 1500 мг/кг, 2000 мг/кг, 2500 мг/кг, 3000 мг/кг и оценивали выживаемость животных в течение 14 суток. В конце эксперимента вычисляли дозу  $LD_{50}$  и определяли класс токсичности разработанного геля. Также, в работе было исследовано местно-раздражающее действие геля.

**Полученные результаты.** Согласно результатам проведенного эксперимента, разработанный 0,5 и 1% гель на основе гуанидин пектина не вызывал летальных исходов у животных в дозах 1000-3000 мг/кг. При этом отсутствовали признаки токсического действия геля на нанесенные поверхностные участки животных. В процессе изучения гелей существенных изменений в поведении животных отмечено не было. В течение дальнейших двух недель проводили наблюдения за двигательной активностью, наличием судорог, координацией движений, дыханием, кожных реакций, потреблением воды и пищи животными. В токсикологических испытаниях раздражения кожных покровов в виде покраснения, шелушения, а также изменения шерстного покрова локально на выстриженном участке у животных не было отмечено. При макроскопическом обследовании не выявлено гиперемии на участках кожи животных, обработанных антимикробным гелем.

**Выводы.** Таким образом, результаты проведенных токсикологических исследований мягкой лекарственной формы, содержащей, антимикробный полимер в весовом количестве 0,5 и 1% показали, что  $LD_{50}$  геля составляет более 3000 мг/кг. Это дает основание отнести разработанный гель к VI классу относительно безвредных веществ. При местном нанесении антимикробного геля, раздражающего действия на кожу животных не было отмечено.

## PROSPECTS FOR THE USE OF EXTRACTION-INSTRUMENTAL METHODS IN THE CHEMICAL ANALYSIS OF MEDICINES AND RAW PLANT MATERIALS

**Dosmagambetova S.S., Tasmaganbetova K.S., Nurpeisova D.T., Beisembayeva K.A.**

*L.N. Gumilyov Eurasian National University, Nursultan, Republic of Kazakhstan  
e-mail: saule\_ds@mail.ru*

Quality control of raw materials and manufactured medicinal products has always been an important task, the solution of which largely ensures its competitiveness and economic efficiency of production.

A very wide range of raw materials is used for the production of products, the environmental situation is deteriorating, which leads to the appearance of new highly active components-toxicants, including inorganic impurities. These circumstances require the widespread use of modern physical and physico-chemical methods of analysis for quality control of medicinal products.

In this sense, we can talk about the prospects of using analytical methods based on the preliminary extraction of inorganic impurities with low-melting organic substances (FOV) and subsequent determination of their amount by instrumental method.

The aim of the study was: to systematically study and establish the regularities of extraction of a number of metal ions by low-melting organic substances and to develop methods combined with X-ray fluorescence analysis (XFA) and solid-phase spectroscopy (TS) on this basis.

Higher carboxylic acids, as well as their technical fractions, were used as extractants.

Using the methods of IR, TC, Raman spectroscopy, thermal, X-ray phase analysis, schemes of extraction equilibria in these systems were established, dissociation constants ( $K_{a, HR}$ ), distribution constants

( $K_{D,HR}$ ) of reagents, quantitative characteristics of extraction were determined.

Optimal conditions for quantitative extraction and selective separation and simultaneous concentration of metal ions have been established. On the basis of the obtained solid extracts, a method for obtaining comparison samples for RF and TC has been developed and the possibility of their use for the preparation of standard samples that exclude the disadvantages of existing methods has been shown.

Methods have been developed for the determination of a number of metal ions characterized by high selectivity, sensitivity, which will selectively determine the minimum amounts ( $10^{-3}$  -  $10^{-5}$  mol/l) of inorganic impurities in the objects of analysis.

## LIPOY KISLOTANING BETTA-SIKLODESKTRIN VA 2-GIDROKSIPROPIL BETTA - SIKLODEKSTRIN BILAN SUPRAMOLEKULAR BIRIKMALARI SINTEZI

Hakimov Sh.D., Sharipov A.T.

*Toshkent farmatsevtika institute  
e-mail:hakimovshavkat1998@gmail.com, tel. (99)351-98-42*

**Dolzarbliigi:** Dunyo miqyosida qandli diabet bilan yashaydigan insonlar soni 422 million (2014 yil) bo'lib, oxirgi yillarda bu bilan kasallanish jadal tarzda o'sib bormoqda. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, qandli diabetning yuqori darajada ko'payishi past va o'rta daromadli mamlakatlarda kuzatilmoqda. Shuningdek, qonda glyukoza miqdorining yuqori bo'lishi, yurak-qon tomir, ortiqcha vazn kabi boshqa kasalliklar xavfini oshiradi. Bu esa o'z navbatida aholi orasida o'lim sonining ortishiga olib keladi. Lipoy kislota – kuchli antioksidant bo'lib, uning bu xossasidan diabet, ateroskleroz, jigar va oksidlovchi stress bilan bog'liq patologiyalarni davolashda keng qo'llaniladi. Uning tarkibida 2 ta oltingugurt atomlari mavjud va bu guruhlar oson oksidlanishga moyilligi juda yuqori. Shuningdek, uning suvda eruvchanligi ham ancha past. Uning bu xossalari undan foydalanishni ma'lum darajada cheklaydi. Shunga ko'ra, lipoy kislotaning biologik faolligini saqlab qolgan holda uning barqaror va suvda eruvchan birikmalarini olish dolzarb vazifa.

**Maqsad.** Lipoy kislotaning betta-siklodesktrin va 2-gidroksipropil betta - siklodekstrin bilan supramolekulyar birikmalarini sintez qilish.

**Usul va uslublar.** Dastlab lipoy kislotaning etilendiaminli tuzidan 0,1875 g o'lchab olinib, stakanga o'tkazildi va 10 ml tozalangan suv yordamida eritildi. Alohida 100 ml hajmli stakanga 1,4 g 2-gidroksipropil  $\beta$  - siklodekstrin moddasi solindi hamda 30 ml tozalangan suv solindi. Stakan magnitli aralashtirgichga qo'yib xona haroratida erib ketguniga qadar 500 aylanish/daq tezlikda aralashtirildi. Hosil qilingan eritmaga doimiy aralashtirilib turgan holda, ustiga tomchilatib (10 tomchi/daq) oldindan tayyorlab olingan lipoy kislota etilendiaminli tuzining eritmasi qo'shildi. Reaksiya  $25 \pm 2$  harorat, 500 aylanish/daq tezlikda 2,5 soat davomida olib borildi. Reaksiyon muhitda lipoy kislota tuzidan erkin kislota hosil qilish uchun eritmaga 1 mol/l xlorid kislota eritmasidan pH 6 bo'lguniga qadar oz-ozdan qo'shib borildi. Lipoy kislotaning betta-siklodekstrin bilan supramolekulyar birikmasi ham xuddi uslubda sintez qilindi.

**Natijalar:** Olib borilgan tadqiqotlar natijasidalipoy kislota/2-gidroksipropil betta - siklodekstrin (LIP/HP- $\beta$ -CD) va lipoy kislota betta -siklodekstrin(LIP/ $\beta$ -CD) birikmalari sintez qilindi va reaksiyon aralashmadan toza holda ajratib olindi. Lipoy kislotaning mezbon molekulaga inkapsulyasiya darajasi LIP/HP- $\beta$ -CD va LIP/ $\beta$ -CD mos ravishda 84,7 hamda 91,6% larni tashkil etdi. Olingan birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi. Jumladan, ularning suvda eruvchanligi tadqiq etildi. LIP/HP- $\beta$ -CD ning suvda eruvchanligi LIP/ $\beta$ -CD ga nisbatan 10-11 barobar yuqori ekanligi, lekin ikkala birikmaning eruvchanligi ham lipoy kislotaga nisbatan bir necha barobarga oshganligi aniqlandi. LIP/HP- $\beta$ -CD va LIP/ $\beta$ -CD larning identifikatsiyasi kukunli rentgent difraktometrik, derivatografik, element tarkibi, suyuqlanish haroratlarini tegishli mezbon molekulalarga nisbatan qiyosiy solishtirish orqali o'rganildi. Olingan natijalar LIP/HP- $\beta$ -CD va LIP/ $\beta$ -CD lar yangi birikma ekanligini tasdiqladi.

**Hulosalar.** Lipoy kislota/2-gidroksipropil betta - siklodekstrin va lipoy kislota betta-siklodekstrin supramolekulyar birikmalari sintez qilindi va reaksiyon aralashmadan toza holda ajratib olindi. Lipoy kislotaning mezbon molekulaga inkapsulyasiya darajasi LIP/HP- $\beta$ -CD va LIP/ $\beta$ -CD mos ravishda 84,7

hamda 91,6% ni tashkil etdi. LIP/HP- $\beta$ -CD ning suvda eruvchanligi LIP/ $\beta$ -CD ga nisbatan 10-11 barobar yuqori ekanligi, lekin ikkala birikmaning eruvchanligi ham lipoy kislotaga nisbatan bir necha barobarga oshganligi aniqlandi.

## ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПРЕПАРАТА ЩЕЛОЧНОГО ГИДРОЛИЗА ПЕЛОИДОВ

**Кривопалова М.А., Катунина Е.Е., Аввакумова Н.П.**

*Самарский государственный медицинский университет, г. Самара, Россия  
e-mail: m.a.krivopalova@samsmu.ru, тел. 8-902-323-37-16*

**Актуальность.** Гуминовые кислоты пелоидов являются предшественниками целого ряда веществ, проявляющих широкий спектр биологической активности. Требования, предъявляемые к качеству, сложность и многокомпонентность сырья природного происхождения, определяет необходимость использования новых методических подходов и высокотехнологичных, инструментальных, аналитических методов. Гуминовые кислоты не являются индивидуальными веществами, поэтому, несмотря на неспецифическую биологическую активность, использование препаратов на их основе в медицине ограничено.

**Цель работы** – разработка метода качественной идентификации гумусовых кислот пелоидов.

**Материалы и методы.** Объектом исследования явилась группа гумусовых кислот, выделенных путем щелочной экстракции из нативной низкоминерализованной иловой сульфидной грязи после ее деминерализации. Из воздушно-сухого образца приготовлен 1,0%-ный раствор препарата, который предварительно подвергали кислотному гидролизу кипячением с дефлегматором при температуре 80°C на водяной бане в течение трех суток. После экстракции продуктов гидролиза исследования образцов проводили методом хромато-масс-спектрометрии (ГХ-МС) на хроматографе Agilent 7890 А с масс селективным детектором 5975С. Идентификация веществ осуществлялась по библиотекам масс-спектров NIST 11, Wiley 11.

**Полученные результаты.** Результатом исследования была идентификация нейтральных и кислых компонентов, включая насыщенные углеводороды (эйкозан, хенейкозан и др.) и борнеол как предшественника камфары. Основным компонентом нейтральных фракций выступила группа жирных спиртов (октадеканол, додеканол, гексадеканол и др.). Одно-, двухосновные карбоновые кислоты насыщенного, ненасыщенного и ароматического типа, а также их эфирные производные составили группу кислотной фракции, представленной наиболее количественно. В продуктах гидролиза обнаружены также производные тиазола и индола. Максимальное время выхода соответствовало производным стерана.

**Выводы.** Как видно, элюент препарата, выделенного щелочным гидролизом, содержит широкий спектр биоактивных компонентов. Ряд индивидуальных соединений обладает противоопухолевой, гепатопротекторной, антиоксидантной, антибактериальной активностью.

## АНАЛИЗ СЛУЧАЯ ОСТРОГО ОТРАВЛЕНИЯ ПРЕПАРАТОМ АЗАЛЕПТОЛ

**Юлдашев З.А., Нурматова М. И., Зулфикариева Д.А.**

*Ташкентский фармацевтический институт  
e-mail: malohat\_nurmatova@mail.ru. тел. + 998909410697*

**Вступление.** В настоящее время участились случаи злоупотребления психотропными веществами, такими как азалептол (клозапин), среди населения, особенно среди несовершеннолетних. Нередко эти случаи завершаются острым отравлением людей. В судебно-химической практике известно множество случаев острых отравлений препаратом азалептол в результате его немедицинского применения.

По фармакологическим свойствам азалептол является седативным и снотворным средством с нейролептическим эффектом. Он применяется для лечения таких болезней как шизофрения, психопатия возбужденных больных, агрессивность, аффективные колебания и расстройства .

В последнее время в Ташкентский областной филиал Республиканского научно-практического центра судебно-медицинской экспертизы МЗ РУз (РНПЦСМЭ) судебно-следственными органами на судебно-медицинскую экспертизу неоднократно были направлены вещественные доказательства, изъятые из лиц злоупотребивших психотропных веществ. Так, в 2021 году для химико-токсикологического исследования в отдел судебно-химической экспертизы Ташкентского областного филиала были доставлены внутренние органы (печени, почек и желудка) трупа “Х.Т.” (1991 г.р.), скончавшегося в результате приема больших доз азалептола. Перед сотрудниками отдела была поставлена задача провести судебно-химическую экспертизу вещественных доказательств.

**Цель.** Разработка методики обнаружения азалептола (клозапин) методом тонкослойной хроматографии и использование ее в анализе вещественных доказательств (внутренних органов).

**Результаты и обсуждение.** Для обнаружения азалептола предварительно его изолировали из биологического объекта. Для этого использовали метод подкисленной воды (А.А. Васильева). Брли 100 г биологического объекта, его измельчали и вносили в колбу вместимостью 500 мл. Затем биологический объект заливали 200 мл очищенной воды, подкисленной насыщенным водным раствором щавелевой кислоты, до получения значения рН среды 2,0-2,5. Смесь биологического материала и подкисленной воды в колбе оставляли на 2 ч при периодическом перемешивании. После указанного времени кислую водную вытяжку сливали с объекта, который еще раз в течении часа настаивали с очищенной водой, подкисленной щавелевой кислотой до рН=2,5, а затем кислую водную вытяжку сливали с биологического объекта. Кислые водные вытяжки соединяли и процеживали через двойной слой марли. Процеженную вытяжку подвергали центрифугированию. Надосадочную жидкость из центрифужного стакана перенесли в делительную воронку. Эту жидкость 3-4 раза взбалтывали с новыми порциями хлороформа (по 15-20 мл). Хлороформные вытяжки из кислой среды соединяли и исследовали на наличие токсичных веществ, которые экстрагируются хлороформом из кислой среды. Оставшуюся в делительной воронке кислую водную вытяжку подщелачивают 25%-м раствором аммиака до рН = 9-10 и 3-4 раза взбалтывали с хлороформом (порциями по 15-20 мл). Органический слой отделяли, выпаривали. Полученный сухой остаток подвергали исследованию. Сухой остаток растворяли в 1,0 мл этилового спирта и исследовали методом тонкослойной хроматографии (ТСХ).

Для разработки методики обнаружения азалептола методом ТСХ в качестве системы растворителей использовали смесь хлороформа, ацетона и 25%ного раствора аммиака в соотношении 9,0:1,0:2,5. На следующем этапе из таблеток азалептола, представленных в качестве вещественных доказательств, приготовили рабочий раствор в хлороформе концентрацией 100 мкг/мл.

Для хроматографирования 1 мкл рабочего раствора азалептола наносили на первую точку линии старта пластинки с помощью градиуровочного капилляра. На расстоянии 1,5 см от него наносили 1 мкл исследуемого раствора, полученного из биологического объекта и пятна высушивали при комнатной температуре. Пластины опускали в камеру, предварительно насыщенную парами системы растворителей, т.е. хлороформ-ацетон-25% раствором аммиака (9,0:1,0:2,5). Как только фронт растворителя достиг 10 см высоты пластинки вынимали из камеры, сушили при комнатной температуре и проявляли зон локализации веществ. Для этого поступали следующим образом:

- пластинки просматривали в УФ-свете при длине волны 254 нм, при этом на хроматограмме обнаруживаются пятна рабочего и исследуемого растворов, имеющие  $R_f=0,45$ ;

- пластинки опрыскивали реактивом Драгендорфа, приготовленного по Мунье.

Далее для доказательства наличия азалептола растворы испытывали цветной реакцией. Для этого 0,5 мл исследуемого раствора помещали в фарфоровую посуду и упаривали на водяной бане до получения сухого остатка. К сухому остатку с помощью пипетки добавляли 1-2 капли концентрированного раствора азотной кислоты и наблюдали за результатом реакции.

**Результаты.** Использованная система растворителей, состоящая из смеси хлороформа, ацетона и 25%ного раствора аммиака в соотношении 9,0:1,0:2,5, для хроматографирования азалептола методом ТСХ показала, что азалептол имел пятна с  $R_f$  значением 0,45.

При опрыскивании пластинки реактивом Драгендорфа, модифицированного по Мунье, азалептол образовал пятно оранжевого цвета на желтом фоне.

В результате реакции азалептола с концентрированной азотной кислотой в начале образовалось фиолетовое окрашивание, которое перешло в оранжевое, затем быстро перешло в коричневое.

**Выводы.** Разработана методика обнаружения азалептола, изолированного из внутренних органов трупа “Х.Т.” (1991 г.р.), представленных как вещественные доказательства, в Ташкентский областной филиал РНПЦСМЭ. Установлена пригодность разработанной методики при исследовании вытяжек, полученных в результате изолирования азалептола из внутренних органов трупа. Результаты исследований переданы в соответствующие судебно-следственные органы.

## **KOBALT (II) NING TAURIN BILAN SUVDA ERUVCHAN KOMPLEKS BIRIKMASINING SINTEZI**

**Rustamov N.F., Shamsiyev Sh.Sh., Sharipov A.T.**

*Toshkent farmatsevtika institute*

*e-mail: nodirrustamov.nr@gmail.com, tel: +998-97-782-1716*

**Tadqiqot mavzusining dolzrabligi.** Taurin (2-aminoetil sulfonat kislota)  $\beta$ -aminokislota hosilasi bo'lib, metionin va sistein aminokislotalari metabolizmidan hosil bo'ladi. Oqsil tarkibiga kirmaydigan aminokislotalardan biridir. Lekin hayvonlarning turli organlari, muskul to'qimalari tarkibida ko'p miqdorda uchraydi.

Yaponiyalik olimlar “CARDIAC” loyihasi doirasida olib borilgan keng tadqiqotlari natijasida, insonlarda taurin yetishmovchiligi uning yashash sharoiti, jinsidan qat'iy nazar arterial gipertenziyaga yuqoriya sezuvchanlik bilan uzviy bog'ligini aniqlashgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, keng spektrli biologik faollikka ega taurinni metallar bilan kompleks hosil qilish orqali sinergizmi hisobiga uning faolligini oshirish, ta'sir doirasini kengaytirish dolzarb muammo.

**Tadqiqot maqsadi.** Kobalt (II) ionlarining taurin bilan suvda eriydigan kompleks birikma(KB)larini sintez qilish va ularning ayrim fizik-kimyoviy xossalari o'rganish.

**Usul va uslublar.** Sintez xona sharoitida metal tuzi (kobalt (II) xlorid geksagidrat) va taurin eritmasining 0,1 mol/l eritmalarini mos ravishda 1:2 mol (Men+:taurin) aralashtirish orqali olib borildi. Aralashtirish MX-S Vortex Mixer DLAB (Xitoy) uskunasida 80 ayn/daqiqqa tezlikda 30-40 daqiqada davomida olib borildi. Eritmadan KB ajratish, moddani kristallga tushirish usulidan foydalanildi. Eritmadan KB kristall ko'rinishida ajratib olish uchun harorat va namlikni bir me'yorda ushlab turish muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun tajribalar termostatda (Termostat elektricheskiy suxovozdushiy TS-1/80 SPU, Rossiya) olib borildi. Qator tajribalar natijasida kristal o'stirish optimal sharoiti tanlandi: harorat 25, namlik 40-55%. 3-6 mm o'lchamdagi kristall o'stirish uchun sarflangan muddat - 16-20 sutka. Hosil qilingan kristallar ohistalik bilan ajratib olindi va keyingi izlanishlar uchun ishlatildi.

**Olingan natijalar.** Ajratib olingan kristall moddalardan IQ-spektrometriya usulida, spesifik o'lchamlar aniklab olindi va Taurin standartiga nisbatan takkoslandi. Kompleks modda tarkibidagi N-H bog'ining spektri 3400 $\text{sm}^{-1}$  (Taurin 3202  $\text{sm}^{-1}$ ), NH<sub>2</sub> ning spektri 1623  $\text{sm}^{-1}$  (Taurin 1620  $\text{sm}^{-1}$ ), SO<sub>3</sub> uchun bu ko'rsatkich 1219 va 1039  $\text{sm}^{-1}$  (Taurin 1219 va 1041  $\text{sm}^{-1}$ ), C-N uchun 1100  $\text{sm}^{-1}$  (Taurin 1107  $\text{sm}^{-1}$ ). M-O672  $\text{sm}^{-1}$ , M-N 521  $\text{sm}^{-1}$  (Taurinda bunday bog'lanishlar mavjud emas).

**UB-spektroskopik tahlil.** Taurin, [Co-Tau] kristallari asosida 0,01% suvli eritma tayyorlandi va ularning spektri Agilent 8453 UV-visible Spectroscopy System (AQSH) uskunasida olindi. Co-tau UB-spektrida (2) 255 nm to'lqin uzunligida maksimum, 227 nm da esa minimum yutilishlar mavjud. Taurin UB-yutilish spektriga nisbatan, Co-tau yutilishida ma'lum bir o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin.

[Co-Tau] KBning parchalanish harorati 48,3-57,2 °. Hosil bo'lish unumi 61,7%ni tashkil etdi.

**Xulosa.** Birinchi marta kobalt (II) ionining taurin bilan suvda eriydigan kompleks birikmasi sintez qilindi va uni kristall holda ajratib olishning optimal sharoiti tanlandi: harorat 25, namlik 40-55%, 3-6 mm o'lchamdagi kristall o'stirish uchun sarflangan muddat-16-20 sutka. Olingan kristallarning fizik-kimyoviy xossalari, tauringa nisbatan qiyosiy solishtirib o'rganildi.

## “MOMORDICA CHARANTIA L” DORIVOR O‘SIMLIGI ASOSIDA OLINGAN YIG‘MA NAMLIGI VA KUL MIQDORI BO‘YICHA STANDARTLASH

<sup>1</sup>Samadov B.Sh., <sup>2</sup>Jalilov F.S., <sup>1</sup>Jalilova F.S.

<sup>1</sup>Buxoro davlat tibbiyot instituti

<sup>2</sup>Toshkent farmatsevtika institut

e-mail:baxodir\_samadov@mail.ru, tel: (91)449-91-41;

e-mail:dr.fazliddin@gmail.com, tel. (97)450-99-07

**Dolzarbligi.** Respublikamizda o‘simliklarni, ayniqsa dorivor o‘simliklarni mahalliyashtirish usuli bilan yetishtirish, ulardan yangi import o‘rnini bosuvchi dori shakllarini yaratish va ularni standartlash va uni tibbiyotda qo‘llash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

**Maqsad.** Tadqiqot maqsadi mahalliyashtirish usuli asosida yetishtirilgan Hind anori “Momordica charantia L” o‘simligi dorivor yig‘masi namligi va kul miqdori bo‘yicha standartlashdan iborat bo‘ldi.

**Usul va uslublar.** Yig‘ma qoldiq namligini aniqlashda xom ashyoning analitik namunasi taxminan 10 mm qilib maydalanadi va 3 -5 g gacha tortib olindi va 100-105°C gacha qizdirilgan quritish javoniga qo‘yildi. Birinchi tortish ishlari 2 soatdan so‘ng bajarildi. Oxirgi ikkita tortish natijalari 30 daqiqa quritib, 30 daqiqa eksikatorida sovutilgandan so‘ng tortishdagi farq 0,01 g dan oshmasa, doimiy og‘irlikka erishilgan deb hisoblandi. *Yig‘maning kul miqdorini aniqlash.* 3-5 g kattalikda maydalangan dorivor o‘simlik xom ashyosi (a.t.) oldidan qizdirilgan va aniq tortilgan chinni tigeliga solindi. So‘ngra tigel asta–sekinlik bilan past haroratda qizdirildi. So‘ngra qolgan jarayon Davlat farmakopeyesi talablari asosida amalga oshirildi. *Yig‘maning xlorid kislotada erimaydigan kulni aniqlash.* Dorivor o‘simlik xom ashyosini yoqish va kuydirish natijasida qolgan qoldiqqa 15 ml 10% li xlorid kislotasi qo‘shildi. So‘ngra tigel soat oynachasi bilan yopilib, 10 daqiqa suv hammomida qizdirildi. Keyin tigelga soat oynachasini yuvgan holda 5 ml suv quyildi. Suyuqlik kulsiz filtr orqali filtrlandi. Qoldiq bir necha marta issiq suv bilan yuvildi toki xloridlarga reaksiya bermay qolguncha. So‘ng filtrat tigelga qaytib solinib, quritiladi va yuqorida ko‘rsatilgandek kuydirildi va tortildi.

**Natijalar.** Yig‘ma son ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun xom ashyoning analitik namunasi taxminan 10 mm qilib maydalandi va 0,01 g aniqlikda ikkita tortma (3 g dan 5 g gacha) tortib olindi. Natijalarga ko‘ra yig‘ma namligi 9,8% ni, umumiy kul miqdori 6,5% ni, yig‘maning 10% li xlorid kislotada erimaydigan kul miqdori 1,9% ni tashkil etdi.

**Xulosalar.** “Momordica charantia L” dorivor o‘simligi asosida olingan yig‘maning namligi (9,8%), umumiy kul miqdori (6,5%) va 10% li xlorid kislotada erimaydigan kul miqdori (1,9%) bo‘yicha standartlash amalga oshirildi.

### KULIPIR-S KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI

Sulaymonova N.J., Khayrullayev D.X., Jumabayev F.R., Sharipov A.T.

Toshkent farmatsevtika institute

sharipov.avez@gmail.com

**Dolzarbligi.** Abu Ali ibn Sino o‘z amaliyotida turliminerallardan kengfoydalangan. Ularning tarkibidagi makro- va mikroelementlar turli kasalliklarni oldini olish va davolashda muhim ahamiyatga ega. Mis (Cu), oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida faol metall, u odamlar organizmi uchun muhim element bo‘lib, ko‘plab metallofermentlarning kofaktori sifatida bir qator fiziologik va biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etadi. Ular ko‘plab fermentativ jarayonlarni katalizlaydi (hujayrali nafas olish, neyrotransmediatorlar va peptid gormonlarining biosintez, erkin radikallardan himoya qilish, elastin, kollagen va keratinning o‘zaro bog‘lanishi). Cu temir gomeostazi uchun ham zarurdir va shuning uchun bilvosita gematopoezga ta‘sir qiladi va qon koagulyatsiyasi va angiogenezdagi ishtirok etadi. Vitamin B<sub>6</sub> (piridoksin) organizmdagi moddalar almashinuvida jadal tarzda ishtirok etadi, u markaziy va periferik asab tizimining normal ishlashi uchun zarurdir. Makronutrient almashinuvining ko‘p jihatlari, neyrotransmediatorlar (serotonin, dofamin, adrenalin, norepinefrin), gistamin, gemoglobin sintezi va funksiyasi, lipid sintezi, glyukoneogenez, gen

По механизму действия оба вещества относятся к блокаторам потенциал-зависимых натриевых каналов, взаимодействующих с БТХ-чувствительным сайтом.

Таким образом, оба изученных алкалоида являются перспективными для дальнейшего изучения их анальгетического действия и фармакологических свойств.

## КАРСИЛ ФОРТЕ И ЕГО МНОГОГРАННОЕ ДЕЙСТВИЕ

Азизова Р.А., Касимова Ш.Ш., Хакбердиева Г.Э.

*Ташкентский педиатрический медицинский институт*

*e-mail: gulyaopa@mail.ru +998909451345; shahlo.kasimova.62@mail.ru +998946451498;*

*e-mail: azizovarihsi@gmail.com +998998907820*

**Актуальность:** Прогресс медицинской науки, введение в практическую медицину новых лекарственных средств, обеспечивают в более короткие сроки выздоровление больных, снизить показатели инвалидизации и летальности. В последнее время чтобы обеспечить безопасность и снизить побочные эффекты применение карсил форте имеет немаловажное значение.

**Цель.** Оценить действие препарата карсил форте, с действующим веществом силимарин и его противотоксическое действие.

**Материалы и методы.** Обзор литературных данных и клинических исследований.

**Полученные результаты.** Силимарин это смесь флавоноидов получаемых из плодов расторопши пятнистой (*Silybium marianum* L). Более 2000 лет в народной медицине пользовались целебными качествами расторопши пятнистой, и только в XX в., ученые изучили, что он обладает гепатопротекторным, антигепатотоксическим свойствами. Антигепатотоксическое действие силимарина обусловлено его способностью конкурентно связываться с рецепторами к соответствующим токсинам в мембранах гепатоцитов. Известны и такие эффекты силимарина, как иммуномодулирующий, противовоспалительный и регенераторный. Препятствуя проникновению в клетку некоторых гепатотропных ядов в дозе 20–48 мг/кг в сутки, показано в качестве антидотной терапии при отравлении бледной поганкой. Среди недавних открытий имеет антифибротическое действие силибинина. Большая часть силимарина обнаруживается в цитоплазме гепатоцитов. Он является малотоксичным веществом и в терапевтических дозах не оказывает негативного действия на организм человека.

**Вывод.** Изучая фармакотерапевтическое действие карсила форте, можно рекомендовать его при хроническом гепатите, жировой дистрофии печени (алкогольной и неалкогольной), в комплексной терапии цирроза печени и ее токсических поражениях. Кроме того, силимарин снижает содержание холестерина и липопротеидов низкой плотности в крови при дислипидемии, улучшает метаболизм поддерживая процесс регенерации гепатоцитов. Длительное назначение препарата (около 6 мес.) способствует снижению активности цитотоксического звена.

Таким образом, при приеме карсила форте улучшается клиническое состояние больных, нормализуются лабораторно-диагностические показатели: как активность трансаминаз, а также уровень гамма-глобулинов и билирубина в сыворотке крови.

## АНТИОКСИДАНТНАЯ АКТИВНОСТЬ ЭКСТРАКТОВ LEONURUS TURKESTANICUS И AJUGA TURKESTANICA ИЗ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE

Бокова А., Зарипова М., Абдуазимова Д.

Институт Биоорганической химии АН РУз  
e-mail: bokovaa16@gmail.com

**Актуальность.** Окислительный стресс является существенным фактором развития многих заболеваний, среди которых значительную часть занимают сердечно-сосудистые заболевания. Важную роль в усилении свободно радикальных реакций играет ослабление антиоксидантных механизмов защиты. В настоящее время в качестве перспективных антиоксидантов рассматриваются вещества растительного происхождения, так как обладают малой токсичностью, и могут применяться как в терапии при заболеваниях, а также в программе реабилитации.

**Цель.** Цель исследования явилось изучение антиоксидантной активности экстрактов лекарственных растений *Leonurus turkestanicus* и *Ajuga turkestanica*, относящихся к семейству Lamiaceae.

**Материалы и методы.** В исследовании использовали экстракты растений, любезно предоставленные ООО Биотон. Общую антиоксидантную активность образцов определяли фосфомолибденовым методом по методике Prieto et al. (2017) по калибровочной кривой аскорбиновой кислоты. Определение перекисного окисления липидов проводили согласно Vanerjee et al. (2015) по содержанию малонового диальдегида (МДА) на липидах яичного желтка.

**Полученные результаты.** В ходе изучения общей антиоксидантной активности экстрактов *Ajuga turkestanica* и *Leonurus turkestanicus* было установлено, что *Ajuga turkestanica* в объеме 10 мкл (концентрация 2мг/мл) проявляет большую антиоксидантную активность, чем экстракт *Leonurus turkestanicus* в объеме 25 мкл, что в пересчете на аскорбиновую кислоту составляет 650мг/мл для *Ajuga turkestanica* и 200мг/мл для *Leonurus turkestanicus*. Для определения ингибирования были взяты экстракты в объеме 100, 250, 500 и 1000 мкл (концентрация 2мг/мл). *Ajuga turkestanica* в объеме 100 мкл проявляла 18% ингибирования, тогда как *Leonurus turkestanicus* в таком же объеме 100 мкл проявил 8% ингибирования.

**Выводы.** Из вышеизложенного можно сделать вывод, что *Ajuga turkestanica* обладает большим антиоксидантным эффектом, чем *Leonurus turkestanicus*.

## EKSPERIMENTAL ME'DA YARASI MODELLARIDA LESBOXOL SAMARADORLIGINI O'RGANISH

Djanayev G'.Yu., Mustanov T.B., Xudayberdiyev X.I., Mamadjanova M.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
e-mail: gayratdjanayev75@gmail.com, tel. (97)422-04-03

**Dolzarbli.** Tibbiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, me'da yarasi shakllanishi bilan kechadigan patologiyalarning tarqalishi juda yuqori. Ko'p hollarda 12 barmoq ichak va me'da yarasi bilan bir vaqtning o'zida tashxislanadi. Zamonaviy nazariyaga asosan yara kasalligining kelib chiqishi me'da shirasi tarkibidagi agressiv omillar va shilliq qavatdagi himoya omillari orasidagi muvozanatning buzilishiga bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda aholining 6-10% yara kasalligi bilan og'riydi. Erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq kasallanadi (4:1). Ko'proq yoshlarda 12 barmoq ichak yara kasalligi, o'rta yoshli bemorlarda me'da yara kasalligi uchraydi. Shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan ko'proq kasallanadi. Me'da shilliq qavatiga zarar yetkazadigan dorilar orasida nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar (NSYQV) salmoqli o'rin egallaydi.

NSYQV yallig'lanish reaksiyalari antiagregant va og'riqlar bilan namoyon bo'ladigan ko'plab kasalliklarni davolashda keng qo'llaniladi. Bugungi kunda tibbiyot amaliyotida gastropatiyani davolash maqsadida juda ko'p dori vositalari ishlatiladi biroq ular amaliyot shifokorlarining talablariga to'liq javob bermaydi.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib yaraga qarshi zaharliligi kam yuqori samarali yangi gastroprotektor xususiyatiga ega dori vositalarini yaratish, o'rganish va tibbiyot amaliyotiga joriy etish dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o'simlik xom oshyosidan olingan moddalar shubhasiz qiziqish uyg'otadi. Ma'lumki, shifobaxsh o'simliklar asosida olingan dorivor vositalar, kimyoviy yani sintetik vositalarga ko'ra organizm uchun nisbatan zararli ta'siri kam.

Respublikamiz tibbiyoti oldidagi dolzarb vazifalardan biri mahalliy o'simlik xomashyosi asosida yangi dori vositalarini izlash va yaratish hisoblanadi.

**Maqsad.** Dorivor o'simliklar quruq ekstrakti asosida me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasini davolashda qo'llaniladigan yuqori samarali dori yaratish. Biz bu maqsadda dorivor o'simliklar quruq ekstraktidan tashkil topgan Lesboxol preparatining yaraga qarshi faolligini o'rgandik.

**Materiallar va uslublar.** Lesboxol ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo hisoblangan dorivor o'simliklar – dag'al bargli dalachoy (*Hypericum scabrum*), gulbargli kiyiko't (*Ziziphora pedicellata*), olqor o'ti (*Mediasia macrophylla*) va oddiy qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*) respublikamizda ushbu preparatga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondiradi. Ushbu tajribalar kalamushlarda me'daning shikastlanish darajasi va paydo bo'lish mexanizmi bo'yicha bir-biridan farq qiladigan immobilizatsion stress, rezepin va indometasin me'da yarasi modellarida olib borildi. Makroskopik va biokimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilindi Lesboxolning yaraga qarshi faolligini o'rganish uchun 180-200 g og'irlikdagi sog'lom oq tajriba kalamushlarda o'tkazildi.

**Natijalar.** Tadqiqotlar natijalari Biostat 2009 dasturiy ta'minot to'plamidan foydalangan holda statistik tahlil qilindi.  $M \pm m$  xususiyatlarining ahamiyatini va Student kriteriyasiga ko'ra ko'rib chiqilayotgan namunalardagi farqlarni o'zgartirish statistikasi usuliga muvofiq baholandi. Taqqoslangan guruhlardagi farqlar 95% ( $p < 0,05$ ) ahamiyatlilik darajasida muhim deb hisoblandi. Lesboxolning 100 mg/kg dozada og'iz orqali kiritish stress, rezepin va indometasin tufayli yuzaga kelgan yaralar modellarida aniq yaraga qarshi ta'sir ko'rsatadi. 7-kun profilaktik davolangan kalamushlarda umumiy yaralar o'rtacha soni  $15,82 \pm 0,77$  ni tashkil etdi, bu rebapimid va mizoprostol darajasida ekanligi qayd etildi. 14-kun mobaynida profilaktik davolangan kalamushlarda makroskopik jihatdan me'da shilliq qavatining regeneratsiyasi tez tiklandi. Biokimyoviy ko'rsatkichlar: erimaydigan glikoprotein tarkibiy qismlari sial kislotasi va geksoza miqdorini narozatga nisbatan 70% dan 90% gacha oshirgan.

**Xulosa:** O'tkazilgan eksperimental yara modellarida Lesboxol preparatining 100 mg / kg dozada me'da shilliq qavatiga aniq yaraga qarshi profilaktik ta'sir ko'rsatishi to'g'risida xulosa qilindi. Mahalliy o'simliklardan olingan ushbu majmuaviy preparat gastrit hamda me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasining oldini olish va davolashda istiqbolli preparatlardan biri bo'lishi mumkin.

## EKSPERIMENTAL ETANOLLI GASTROPATIIYADA LESBOXOLNING GASTROPROTEKTIV TA'SIRI

Djanayev G'.Yu.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Farmakologiya kafedrasida  
e-mail: gayratdjanayev75@gmail.com, tel. (97)422-04-03

**Dolzarbliigi.** Har kuni dunyoda 30 milliondan ortiq odam nosteroid yalliglanishga qarshi vositalarni (NSYaQV) og'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi, antipiretik va trombozning oldini olishda antiagregant sifatida qabul qiladi. Bir yil davomida 300 milliondan ortiq odam NSYaQV larni qabul qiladi, ularning faqat 1/3 qismi NSYaQVlarni shifokorning retsepti bo'yicha qabul qiladi, 2/3 qismi retseptsiz. Qo'shma Shtatlarda har yili 30 milliarddan ortiq NSYaQV tabletkalari sotiladi yoki rivojlangan mamlakatlarda ushbu guruhdagi sotilgan dorilar 20-30% ini qariyalar oladi. Yigirmanchi asrning oxirida va joriy asrning boshlarida NSYaQV larni iste'mol qilish har 10 yilda 2-3 marta oshirish tendentsiyasi mavjud. Buyuk Britaniyada har yili 2000 ga yaqin bemor NSYAQV bilan bog'liq asoratlardan vafot etadi, Ispaniyada NSYaQV qabul qilgan bemorlarning o'lim darajasi 100 ming kishiga 15,3 ni tashkil qiladi. AQShda yiliga 107 ming inson NSYAQVlarni qo'llash bilan bog'liq holat bo'yicha kasalxonaga yotqiziladi va 16,5 ming o'lim. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda me'da yarasi kattalar orasida dunyo aholisining 5% dan 15% (o'rtacha 7-10%) qismida uchraydi. Mamlakatlar bo'yicha G'arbiy Evropa,

me`da yarasining tarqalishi aholining o`rtacha 8,2%, AQShda 7-10%, Yaponiyada - 11%, Hindistonda - 25%. Rossiyada har o`ninchi aholi me`da yarasi bilan kasallangan. Rossiya Federatsiyasida kasallanish 100 ming kishiga 157,6 nafarni tashkil qiladi. Eng yuqori kasallik Volga va Markaziy Osiyoda qayd etilgan. O`zbekistonda me`da yarasi bilan kasallanish 1000 aholiga 9-10 kishini tashkil etadi. So`nggi o`n yilliklarda gastroenterologiya farmakoterapiyasi sohasidagi yutuqlarga qaramay, me`da yarasi kasalligi me`da-ichak traktining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri bo`lib qolmoqda. Shu munosabat bilan mahalliy yaraga qarshi dori vositalarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Maqsad.** Lesboxol (4 xil o`simlik – dag`al bargli dalachoy (*Hypericum scabrum*), gulbargli kiyiko`t (*Ziziphora pedicellata*), olqor o`ti (*Mediasia macrophylla*) va oddiy qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*)) quruq ekstraktlarning albinos kalamushlarda etanoli oshqozon shikastlanishida gastroprotektiv ta`sirini baholash.

**Usul va uslublar.** Tajribalar 36 ta erkak va urg`ochi Wistar kalamushlarida o`tkazildi. Tajriba hayvonlari 6 guruhga bo`lindi. 1-guruh nazorat, 2,3,4 guruhlarga mos ravishda lesboxol 25 mg/kg, 50 mg/kg, 100 mg/kg va 5- guruh qiyoslov 100 mg/kg rebamipid. Eksperimental guruh hayvonlari gastropatiyani modellashtirishdan oldin 7 kun davomida 2,3 va 4 guruhlarga lesboxol quruq ekstrakti, 5-guruhga rebamipid preparati og`iz orqali kiritildi: Etanol gastropatiyasi 10 ml / kg dozada etanolning bir martalik metal zond orqali intragastral kiritilishi bilan modellashtirildi. Oshqozon shilliq qavatida strukturaviy o`zgarishlar aniqlandi, ular kichik mayda nuqtali, katta yumaloq va tayoqcha chiziqli yaralarga ajratilgan. Oshqozonning patologik tadqiqotlari o`tkazildi.

**Natijalar.** Aniqlandi eksperimental guruhlarda oshqozonda umumiy zararlanishlar soni nazoratga qaraganda o`rtacha 2-guruhda 44% ga, 3-guruhda 67% ga, 4-guruhda 79% va 5-guruhda 86% ga kam bo`lgan. Profilaktik dori kiritilgan eksperimental guruhlarda katta yara uchun Pauls indeksi nazorat ko`rsatkichidan past edi. Bu guruhlarda hayvonlarning oshqozon devorida shilliq qavatning mushak plastinkasiga etib bormagan sayoz eroziyalar qayd etilgan; mikrosirkulyatsiya buzilishi va leykotsitlar infiltratsiyasi kamroq bo`lgan.

**Hulosalar.** Lesboxol ya`ni 4 xil o`simlik – dag`al bargli dalachoy (*Hypericum scabrum*), gulbargli kiyiko`t (*Ziziphora pedicellata*), olqor o`ti (*Mediasia macrophylla*), oddiy qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*) quruq ekstraktidan tashkil topgan majmuaviy preparatning kalamushlarda etanol ta`sirida chaqirilgan me`da yarasining remissiyasini tezlashtirganligi aniqlandi. Ushbu majmuaviy preparat gastrit hamda me`da va o`n ikki barmoq ichak yarasining oldini olish uchun istiqbolli preparatlardan biri bo`lishi mumkin.

## TEMIR TANQISLI ANEMIYANI DAVOLASHDA SUMBUL O`SIMLIGINI SAMARASI

<sup>1</sup>Ergashova Sh.I., <sup>2</sup>Yigitov A.O., <sup>3</sup>Muxamadiyev N.K.

<sup>1</sup>*Samarqand veterinariya meditsinasi instituti,*

<sup>2</sup>*Samarqand viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazi,*

<sup>3</sup>*Samarqand davlat universiteti*


*tel.: +998937260837, e-mail: shahnoza080404@gmail.com*

Anemiya kasalligi butun dunyoda tarqalgan bo`lib, ayniqsa bizning mamlakatimizda ayollar va bolalar orasida keng uchraganidan zamonaviy tibbiyotning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Butun dunyoda anemiya kasalligiga chalingan bemorlar aholining 24,8% ni tashkil qiladi; eng yuqori tarqalganlik maktabgacha yoshdagi bolalar orasida (47,4%), undan keyin esa homilador ayollar (41,8%) va reproduktiv yoshdagi ayollarda (30,2%). Anemiya kasalligi ayniqsa, Janubi – Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan bo`lib, shu hududlarda reproduktiv yoshdagi ayollarning deyarli yarmi anemiya bilan kasallangan. Mamlakatimizda anemiya kasalligi sog`liqni saqlashning alohida muammosi bo`lib qolmoqda, ya`ni homilador ayollarning 31,4 foizini va reproduktiv yoshdagi ayollarning 26,5 foizini tashkil qiladi.


Anemiya asosan boshqa kasalliklar ta`sirida paydo bo`lganligi sababli ikkilamchi holat sifatida ham qaraladi. Shuning uchun muntazam ravishda dori preparatlarini qabul qilish natijasida organizm zaharlanishi hisobiga anemiya kasalligi paydo bo`lishi ham ko`p uchraydigan holatlardan biridir. Demak hozirgi sintetik dori vositalari anemiyani davolash asnosida organizmdagi ayrim a`zolarga salbiy ta`sir ko`rsatadi. An`anaviy tabobat usullari bilan davolash esa har tomonlama samarali va zararsiz hisoblanadi.

Bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino anemiyaning davolashda ismaloqdan, qora zira, shirinmiya ildizi, tirmoqgul, qushtoron, qoraqat, zirk, tog'zirasi, grechixa, xino daraxti, do'lana, tog' jambili, qoqio't, limono't, sumbul, qizil sabzi, na'matak kabi tarkibida temir moddasi saqlagan dorivor o'simliklardan keng miqyosda foydalanib kelingan. Kasallikni davolash va uni oldini olish maqsadida dorivor o'simliklardan dori turlari tayyorlanadi yoki ulardan dorivor preparatlar va sof holdagi dorivor moddalar olinadi. Bunda biz sumbul o'simligining kasalliklarni davolash xususiyatiga ega biologik faol moddalarga boy bo'lgan qismidan, ya'ni o'simlikni yerosti organidan foydalanildi.

Sumbul o'simligining er osti qismi Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Vaxshivar qishlog'i hududidan iyun – avgust oylarida terildi. Terilgan namuna yuvilib, har xil ildizchalardan tozalanib, quritildi va kukun holiga kelgunicha maydalandi. Kukun holdagi namunadan 250 mg dan qilib kapsula tayyorlandi. Samarqand viloyat shifoxonasining gematologiya bo'limida davolanayotgan bemorlarga ularning yoshi va anemiya darajasiga qarab kuniga 1 kapsuladan 3 mahal buyurildi. Davolanishning samarasi qondagi gemoglobin miqdori va qonning rang ko'rsatkichi yordamida baholandi. Kapsula sinovida 10 nafar turli yoshdagi ayol bemorlar qatnashdilar. Bemorlarning bir nafari anemiyaning yengil darajasi bilan, besh nafari esa anemiyaning o'rta og'ir darajasi bilan va to'rt nafari anemiyaning og'ir darajasi bilan og'irgan bemorlar. Qon tahlili natijalari shunu ko'rsatmoqdaki, gemoglobin o'rtacha 10,23% ga, rang ko'rsatkichi esa o'rtacha 2,45% ga oshgani aniqlandi, quyidagi diagrammalarda o'sish ko'rsatilgan.



1-rasm. Bemor qonining gemoglobin miqdori.  
1. Kelganda; 2. Davodan keyin



2-rasm. Bemor qonining rang ko'rsatkichi.  
1. Kelganda; 2. Davodan keyin

Bugungi kunda temir tanqisli anemiya kasalligini davolashda fitopreparatlar va dorivor o'simliklar xazinasini boyitish maqsadida yangi dorivor o'simliklarni izlab topish. Yangi, samarali fitopreparatlar yaratishda dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish. Shu maqsadda xalq tabobatidagi va an'anaviy tibbiyotdagi, shuningdek, tibbiyotda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning samarali turlarini o'rganishni tashkil qilish.

## **ДИГИДРОКВЕРЦЕТИН ФЛАВОНОИДИНИ КАЛАМУШ ЖИГАР МИТОХОНДРИЯСИ НАФАС ОЛИШИ ХАМДА ОКСИДЛАНИШЛИ ФОСФОРЛАНИШИГА ТАЪСИРИ**

**Эрназаров З.М., Позилов М.К., Холиқова М. Ж., Журакулов Ш.Н.**

*Ўзбекистон Миллий университети ҳузуридаги Биофизика ва биокимё институти  
email: zafarbek1985@gmail.com, тел: +998905671555*

**Долзарблиги.** Ўсимликлардан ажратиб олинган бирикмалар юқори биологик фаол моддалар бўлиб, улар тадқиқотларда гепатопротектор, кардиопротектор, нейропротектор ва антиоксидант хоссаларини намоён қилади. Мана шундай биологик фаол моддалар синфи вакилларида бири флавоноидлар бўлиб, ҳозирда уларнинг 10000 дан ортиқ турлари ажратиб олинган. Аммо ушбу флавоноид бирикмаларнинг айримларини физиологик ва фармакологик хоссалари ўрганилган ҳолос. Флавоноидлар турли патологик жараёнларда хужайра ва унинг органеллари биомембраналари дисфункцияни қайта тиклаш хоссалари намоён қилади. Мана шундай биологик фаол моддалардан

бири дигидрохверцетин антиоксидант сифатида эркин радикалларни зарарсизлантириш, яллиғла-нишга қарши ва гепапротектив хусусиятларга эга эканлиги билан бошқа флавоноидлар ажралиб туради. Аммо ушбу флавоноидни каламуш жигар митохондрияларида нафас олиш ва оксидланишли фосфорланиш жараёнларига таъсири *in vitro* тажрибаларда ўрганилмаган.

**Мақсад:** *in vitro* тажрибаларда каламуш жигар митохондрияси нафас олиши ва оксидланишли фосфорланиши жараёнига дигидрохверцетин флавоноидини таъсирини ўрганишдан иборат.

Тадқиқот усуллари: Каламуш жигаридан митохондриялар дифференциал центрифугалаш йўли билан ажратиб олинган. Жигар митохондриясининг нафас олиш тезлиги ва оксидланишли фосфорланиши кўрсаткичлари полярографик усулда аниқланди. Бунда кислород истеъмоли кларк типидagi кислород электродига асосланган Mitocell C 200 микрореспирометрия тизими ёрдамида ўлчанди (Strathkelvin Instruments, Scotland).

**Натижалар.** Тажрибада каламуш жигари митохондриясининг ФАДга боғлиқ субстрат иштирокида нафас олиши ва оксидланишли фосфорланишига дигидрохверцетиннинг 20, 60 ва 100 мкМ концентрациялари таъсири ўрганилди. Сукцинатни  $V_2$  ҳолатдаги оксидланиши назоратда 7,38 мкг.  $O_2$  атом/мин.ни 20, 60 ва 100 мкМ концентрацияларда мос равишда 8,41 мкг., 9,84 мкг. ҳамда 13 мкг. атом  $O_2$ /мин. ни ташкил этди. Инкубация муҳитида 200 мкМ АДФ мавжуд шароитда назоратда 25,6 мкг. атом  $O_2$  /мин. ташкил этди. Дигидрохверцетинни 20, 60 ва 100 мкМ концентрацияларда митохондрияларда кислород истеъмоли 27,6 мкг, 33,9 мкг ва 41,8 мкг. атом  $O_2$ /минутни ташкил этди. АДФ тўлиқ АТФ айланиб бўлгандан кейинги  $V_4$  ҳолатда эса митохондрия кислород истеъмоли назоратда 4,54 мкг. атом  $O_2$ /мин. ни, дигидрохверцетинни билан таъсир эттирилганда 4,61 мкг, 5,23 мкг ва 6,47 мкг. атом  $O_2$ /минутни ташкил этди. Дигидрохверцетин таъсирида Чанс бўйича нафас назорати ва АДФ/О коэффициенти ортиши кузатилди.

**Хулоса:** дигидрохверцетиннинг 20, 60, 100 мкМ концентрациялари нафас назорати кўрсаткич-лари ва АДФ/О қийматини ишончли даражада оширганлиги аниқланди.

## CRATAEGUS (ДЎЛАНА) ЭКСТРАКТИНИ АОРТА ПРЕПАРАТИ L-ТИП $Ca^{2+}$ -КАНАЛЛАРИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ

Иномжонов Д.Р., Омонтурдиев С.З., Гайибов У.Г., Зарипова М.Р., Арипов Т.Ф.

ЎзР ФА А.С. Содиқов номидаги Биоорганик кимё институти,  
Наманган давлат университети  
E-mail: siroj.2012@mail.ru

**Долзарблиги.** L-тип  $Ca^{2+}$ -каналлари  $Ca^{2+}$  транспортери ҳисобланади. Уларнинг фаоллашуви ёки очилиши мембрана потенциали  $-50$  мМ бўлганида содир бўлади ва бундай ҳолатда улар узок вақт давомида ўтказувчан ҳолатда бўлади. Уларнинг номланиши ҳам шундан келиб чиққан. Ушбу каналлар орқали кирадиган  $Ca^{2+}$  ионлари фақатгина ҳаракат потенциалини таъминлаб қолмасдан, балки силлиқ мускул хужайралари (СМХ) фаоллашишида ҳам иштирок этади.

**Тадқиқотнинг мақсади.** Юқорида келтирилган маълумотларни ҳисобга олган ҳолда, ушбу тадқиқот ишининг мақсади маҳаллий crataegus (дўлана) экстрактини каламуш аорта препарати L-тип  $Ca^{2+}$ -каналларига таъсир механизминини ўрганишдан иборат.

Тадқиқот усуллари ва материаллари. Тажрибалар изометрик шароитда, оқ каламушлар (200–250 гр.) аорта қон-томир препаратига олиб борилди Тажрибаларда (мМ): NaCl – 120,4; KCl – 5;  $NaHCO_3$  – 15,5;  $NaH_2PO_4$  – 1,2;  $MgCl_2$  – 1,2;  $CaCl_2$  – 2,5;  $C_6H_{12}O_6$  – 11,5 (pH=7,4) (Россия) реактивларидан фойдаланилди.

**Натижалар.** Маълумки, KCl (50 мМ) таъсирида чақирилган аорта препаратининг қисқариш фаоллиги силлиқ мускул хужайралари плазмалеммасида жойлашган потенциалга боғлиқ  $Ca^{2+}$ -каналлари фаоллашиши билан белгиланади. Бунда муҳитдаги  $K^+$  ионлари концентрацияси ортиши шароитида мембрана потенциали қиймати ўзгаради ва ўз навбатида, мембрана деполяризацияси амалга ошади ва потенциалга боғлиқ  $Ca^{2+}$ -каналлари фаоллашади. Тажрибаларда, KCl (50 мМ) билан чақирилган каламуш аорта препаратининг қисқаришига crataegus (дўлана) экстрактини таъсири ўрганилди. Бунда ушбу экстракт дозага боғлиқ кучли релаксант таъсирга эга эканлиги аниқланди.

Жумладан, 5 мкг/мл концентрацияда аорта препарати қисқариш фаоллигини назоратга нисбатан  $9,2 \pm 3,8\%$  га сусайтириши аниқланди, 50 мкг/мл концентрацияда эса бу қиймат  $93,4 \pm 3,4\%$  ни ташкил қилиши қайд қилинди.

**Хулоса.** Олинган тажриба натижалари асосида текширилган флавоноидларнинг релаксанти таъсири силлиқ мускул хужайралари сарколеммасида жойлашган потенциалга боғлиқ L-тип  $Ca^{2+}$ -каналларини блокляниши натижасида ва уларнинг цитоплазмасига  $Ca^{2+}$  ионлари кириши сусайиши билан боғлиқ бўлиши мумкинлигини тахмин қилиш мумкин.

## ОЗДИРУВЧИ ДОРILARNING ORGANIZMGA SALBIY TA'SIRI

**Isakov X., Kimsanova G.**

*Andijon davlat universiteti*

*e-mail: gulruhsorrahmanova@gmail.com, tel-(90) 545-01-89*

**Kirish:** Hozirgi kunda semizlik dolzarb muammolardan biri bo'lib, deyarli har bir oilada ushbu mavzu bo'yicha muammolar bor. Ayni vaqtda semizlik har qanday yoshda kuzatiladigan surunkali metabolik kasalliklardan biri hisoblanib, tana vaznining asosan yog' to'qimalari hisobiga ortishi bilan namoyon bo'ladi, natijada aholining umumiy kasallanish va o'limi holatlari ko'payishi kuzatiladi. Taraqqiy topgan jamiyatda genetik jihatdan o'zgarish bo'lmasdan ya'ni irsiy omillarga bog'liq bo'lmagan holda semizlik keskin ortib ketganini ko'rish mumkin. Semizlikning rivojlanishi organizmdagi energiya qabul qilish va sarflash o'rtasidagi muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Semirib ketish qandli diabed, gipertoniya va ortiqcha vaznning mavjudligi bilan bog'liq boshqa kasalliklarga olib keladi. Ozish bu semizlikning davosidir. Bunda esa parhez, turli hildagi mashqlar va ozdiruvchi dori vositalaridan foydalanilgan holda ozish kerak.

**Dolzarbli:** Ozish eng katta muammolardan bo'lib ko'pchilik insonlar mashqlar bajargani, o'z vaqtida parhez qilgani erinadilar. Undan ko'ra eng oson yo'l sifatida - dorilar va BAD lardan foydalanishni ko'pchilik oson yo'l deb biladi. Bu esa xato fikr. Negaki insonlar ozdiruvchi dori vositalarining inson organizmiga salbiy ta'sirini bilmaydilar. Ko'pchilik ozdiruvchi sintetik dori vositalari tarkibidagi nerv sistemasiga ta'sir etuvchi moddalar asabiylik, uyqusizlik va dipressiyaga olib keladi.

**Maqsadi:** Insonlarda sog'lom turmush tarzini tadbqiq etish, ularni to'g'ri ovqatlanish ratsionini yo'lga qo'yish, shuningdek tarkibida ozdiruvchi moddalar bo'lgan meva va sabzavotlardan oqilona foydalangan holda sintetik dori vositalaridan voz kechish va ozishiga yordam berish asosiy maqsadimizdir.

**Usul va uslublar:** Sintetik dori vositalaridan vos kechgan holda turli hil parhezlardan unumli foydalanish kerak. Bunda esa xalq tabobatiga murojaat qilamiz. Limon, zira, grechiha, ukrop singari tarkibida foydali mikroelementlar, tabiiy kislotalar saqlagan mahsulotlardan foydalanish asosiy usullardan biridir.

**Natijalar:** Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda turli xildagi parhezlar yordamida tana vaznining sezilarli darajada pasayganini kuzatiladi. Organizmni ancha yengillashganini, ortiqcha shlaklardan tozalanganligini ko'rdik. Shuningdek ozdiruvchi dori vositalarini iste'mol qilayotgan bir nechta bemorlarda stress holatlari kuzatilganda xalq tabobati tabiiy parhez mahsulotlaridan: limon, zira, grechiha, ukrop kabilardan birini berilsa, ularni stress holatdan chiqishiga yordam berishligi aniqlandi.

**Xulosalar:** Shuni aytish kerakki, har bir inson avvalo sog'lom bo'lish uchun ham to'g'ri ovqatlanishi va kundalik ratsioniga foydali oziq ovqat mahsulotlarini qo'shishi kerak. Ortiqcha vazn hech kimga foyda keltirmagan faqatgina organizmning funksiyalari buzilishiga olib kelgan. Inson ozish uchun harakat qilish davomida iloji boricha sintetik dorilardan voz kechgan holda xalq tabobati usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

## ME'DA YARASINI DAVOLASH UCHUN MIYIYON FLAVONIDLARINI QO'LLANISH PERSPEKTIVASI

Karapetova E.V.

Maykop davlat texnologiya universiteti, Maykop, Rossiya Federatsiyasi  
elektron pochta: lena.karapetova@bk.ru, tel. +79604924334

**Muvofiqlik.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qizilmiya flavonoidlari (xalkonlar) yallig'lanishga qarshi, immunotrop, sitoprotektiv va antioksidant ta'sirga ega bo'lib, turli hujayra ichidagi signalizatsiya yo'llariga ta'sir qiladi. Bu ularni klinik amaliyotda qo'llash istiqboliga olib keladi.

**Maqsad.** Mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish va qizilmiya flavonoidlari va ularning hosilalarini surunkali oshqozon yaralarini, shu jumladan steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilarni (NSAID) qo'llash natijasida kelib chiqqan yaralarni davolashda qo'llash imkoniyatini baholash.

**Materiallar va usullar.** Elektron ma'lumotlar bazalarida ko'rsatilgan mavzu bo'yicha adabiyot ma'lumotlari: PubMed, CyberLeninka, Elibrary, shuningdek tibbiy jumallarning nashrlari.

**Natijalar.** O'ziga xos interleykin (IL) va oshqozon shilliq qavatining yarali lezyonlarini rivojlanish xavfi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun klinik tadqiqotlar davomida yallig'lanish jarayonining faolligi IL tarkibidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. qon plazmasi (oshqozon yarasi bo'lgan bemorlarda IL-17 darajasining sezilarli darajada oshishi qayd etilgan).

Laboratoriya hayvonlarida o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarda likoxalkon A-ning immunomodulyatsion ta'sirining mexanizmlari tasdiqlandi: sichqonlarga tomir ichiga yuborilgandan so'ng, IL-17 darajasining oshishi, T- va B- proliferatsiyasining o'zgarishi kuzatildi. limfotsitlar. Yaraning indometazin modeli bo'lgan kalamushlarda IL-17 ning stimulyatsiyasi oshqozon shilliq qavatida himoya prostaglandin E2 (PGE2), shilliq va bikarbonatlar ishlab chiqarish bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. (1-(4-gidroksi-fenil)-3-m-toluol-propenon)-xalkonning kiritilishi yarali eroziyalarni kamaytirishga yordam berdi va regeneratsiya jarayoniga hissa qo'shdi, kislotalilik darajasini pasaytirdi.

Laborator kalamushlarga 2-karboksimetil-4,4-(3-metil-2-buteniloksi)-xalkon hosilasini 10 kun davomida 50-200 mg/kg dozada yuborish yaralar maydonini pasayishiga olib keldi, shikastlanish joylarida shilliq qavatning yangilanishini tezlashtirdi va mukopolisakkaridlar ishlab chiqarishni ko'paytirdi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar qizilmiya flavonoidlarida gastroprotektiv faollik mavjudligini ko'rsatadi.

**Topilmalar.** Bemorlarning klinik kuzatuvlari va laboratoriya hayvonlarida o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar qizilmiya flavonoidlari va ularning hosilalarining, ayniqsa NSAIDlar keltirib chiqaradigan yaralarga qarshi ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu birikmalarning IL-17 signalizatsiya yo'lga ta'sir qilish qobiliyati va shu bilan oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi va yangilanishi ularni keyingi o'rganish uchun istiqbolli mavzuga aylantiradi.

## АНЖАБОР ЎСИМЛИГИ СУЮҚ ЭКСТРАКТИНИНГ ДИУРЕЗГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ

Хакимова З., Файзиева З.Т.

Тошкент фармацевтика институти  
эл. почта: fzt70@mail.ru тел. 97-7509512

**Долзарблиги.** Хозирги вақтда инсонлар фаолияти давомида рухий зуриқиш, оғир жисмоний юклар, экологик ҳолатнинг салбий омилларига кўп дуч келишади. Бу ўз навбатида танада хужайралар томонидан кислороднинг ишлатилиши бузилишига, энергия танқислиги ва гипоксияга олиб келади. Кўплаб касалликларнинг патогенези гипоксия натижасида тўқима ва хужайраларда кечадиган функционал ва структур ўзгаришлар билан боғлиқ. Масалан, инсульт, инфаркт, ички аъзолардаги ишемик ҳолатлар, мия шикастланишлари, турли сабабга кўра келиб чиққан нафас етишмовчилиги асосида гипоксия ётади.

Гипоксия холатларини бартараф этиш мақсадида антигипоксанти моддалардан фойдаланилади, лекин улар асосан синтетик келиб чиқишга эга бўлиб, турли ножўя таъсирларга эга. Шу сабабли маҳаллий ўсимликлар орасидан антигипоксанти моддаларни қидириб топиш, ўрганиш ва амалга жорий этиш муҳимдир. Анжабор ўсимлиги тажриба моделларида гипоксияга қарши самарали таъсирга эгаллиги аниқланди.

**Ишнинг мақсади.** Фармакологик Қўмита талабларидан келиб чиққан холда, анжабор қуруқ экстрактининг диурезга таъсирини ўрганишдан иборат.

**Усул ва услублар.** Тажрибалар 24 та, турли жинсдаги, вазни 145-160 г бўлган, соғлом оқ каламушларда ўтказилди. Тажрибага олинган ҳайвонлар виварий шароитига мосланган ва уларда скрининг тажрибалар И.В. Саноцкий ва В.В. Гацуралар томонидан келтирилган усулда ўтказилди. Тажрибага олинган каламушларнинг ҳар биридан суткада ажралиб чиққан пешоб миқдори ўлчаб борилди. Сўнгра каламушларнинг ҳар 100 г вазнига 4 мл дан дистилланган сувни оғиз орқали юбориб 1 суткада ажралиб чиққан пешоб миқдорини ўлчаб чиқилди. Тажрибадаги каламушлар гуруҳларга 6 тадан бўлиб чиқилди. 1-гуруҳ назорат гуруҳи бўлиб уларга мос равишда дистилланган сув (4 мл 100г каламуш вазнига) юборилди. 2 гуруҳга эса 100 мл/кг, 3- гуруҳга 200 мл/кг суюқ экстракт юборилди.

**Натижалар.** Олинган натижалар жадвалда келтирилган.

**Анжабор суюқ экстрактининг диурезга таъсири ( $M \pm m, n=6$ )**

№	Препаратлар	Дозаси	Суткалик пешоб миқдори, мл	Диуретик эффе́кт, %
1.	Назорат	Дист. сув 4 мл/100 г	5,1±0,60	100
2.	Суюқ экстракт + дист. сув	100 мл/кг	5,9±0,54	116
3.	Суюқ экстракт + дист. сув	200 мл/кг	6,3±0,65	123

Тажриба натижаларига кўра, анжабор суюқ экстрактининг диуретик самараси назоратга нисбатан мос равишда 16% ва 23% га ортган.

**Хулосалар.** Демак, анжабор суюқ экстракти тажриба ҳайвонларида ажралаётган кунлик пешоб миқдорини сезиларли равишда оширади.

## HEALING PROPERTIES AND CHEMICAL COMPOSITION OF PUMPKIN

**Maxmudova M.M.**

*Andijan State University*

*e-mail: maxmudovamaxliyo@mail.com, tel (97) 232 62 62*

To find out how the pumpkin plant was born, let's look back at 3,000 years ago. Pumpkin is said to have originated in the Americas and quickly spread to European countries. Pumpkin is cultivated in Mexico and is found in almost every country in the world. We now know about 900 species of plants, 400 of which we can recommend for consumption. Pumpkin fruits are widely used in food, as a dietary food, as well as for the treatment of many diseases.

Vitamins	Chemical name	100 g contains	Percentage of daily requirement
Vitamin A	Retional equivalent	250 mkg	25%
Vitamin B1	Thiamine	0.05 mg	3%
Vitamin B2	Riboflavin	0.06 mg	3%
Vitamin C	Ascorbic acid	8 mg	11%
Vitamin E	Tocopherol	0.4 mg	4%
Vitamin B3 [PP]	Niacin	0.7 mg	4%
Vitamin B5	Pantothenic acid	0.4 mg	8%
Vitamin B6	Pyridoxine	0.13 mg	7%
Vitamin B9	Folic acid	14 mkg	4%

Pumpkin is one of the most common melons. As we know from the above tables, pumpkin is rich in very useful vitamins and minerals .

- We will explain in the following lines that the vitamins and minerals in pumpkin are important in human life .
- Vitamin A - has antioxidant properties, which ensure the normal functioning of the body, as well as effective in eye diseases. Improves the reproductive system and has a positive effect on skin diseases.
- Vitamin E - has a beneficial effect on skin aging, ie improving skin tension and regenerating skin cells, as well as the functioning of the endocrine system. It prevents blood clots from forming
- Vitamin 5 - has an assimilation property in inflammation of the adrenal glands.
- Vitamin 6 - reduces the risk of toxicosis and nausea during pregnancy.
- Potassium - stabilizes protein metabolism in the body, water balance in cells and hemoglobin content in the blood, as well as the activity of the heart muscle. Decreased potassium in the body dries the skin
- Copper - normalizes the metabolic process in the body .

#### **Conclusion:**

After getting acquainted with the chemical composition of pumpkin, which is widely used in our country, we have listed above only some of its healing properties. And we recommend that you include pumpkin in your daily diet. The above information shows that vitamins are very important for humans. Pumpkin and its seeds do not lose their importance and usefulness in nutritional supplements. With this in mind, we recommend preparing pumpkin supplements.

## **MAVRAK O'SIMLIGINING MIKROBLARGA QARSHI FAOLLIGINI O'RGANISH**

**Pulatova F.O., Qodirova D.E., Darxonova I.R.**

*Toshkent farmatsevtika instituti*

Mavrak (*salvia*) – labguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar va yarim butalar turkumiga kiruvchi o'simlik bo'lib, efir moylari, organik kislotalar va bundan tashqari oshlovchi moddalar va biofaol moddalar saqlaydi.

**Maqsad.** Mahalliy mavrak o'simligi asosida olingan ekstraktning antibakterial xususiyatlarini aniqlash.

Spirтли va moyli ekstraktlarni olish uchun quyidagi tajribalar olib borildi.

70% li etil spirtini erituvchi sifatida olinib, 1:10 nisbatda ekstrakt tayyorlab olinadi. 5 gr quritilgan mavrak o'simligini mayda, kukun holiga keltirilib, o'sha oyna qatlam hosil bo'lguncha 70% li etil spirti quyildi va og'zini mahkam berkitib 1-2 sutkaga qorong'u joyda qoldiriladi. 24 soatdan keyin kolbaning umumiy hajmi 50 gr bo'lguncha etil spirti quyildi. So'ng aralashma matoli filtr orqali filtrlab olindi. Filtrlashda 8-10 qavat bintdan foydalaniladi. So'ng oradan 2- 3 soatdan keyin paxta filtdan yana o'tkaziladi. 24 soatdan keyin cho'kma hosil bo'lmaganligi aniqlandi. Ekstraktning hajmi 34ml ni tashkil etdi. To'q jigarrang, o'ziga xos hidli spirtli ekstrakt hosil bo'ldi.

Moyli ekstraktning tayyorlash uchun quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Quritilgan mavrak o'simligidan (kukun holigacha keltirilgan) 5gr olib, 1:10 nisbatda o'simlik moyi – kungaboqar moyidan olib, xuddi yuqoridagi kabi ekstraksiya jarayoni olib borildi. Ekstraktning hajmi 41ml ni tashkil etdi. To'q yashil-jigarrang, o'ziga xos spetsifik hidli moyli ekstrakt hosil bo'ldi. Tajribaning keyingi qismida olingan spirtli va moyli ekstraktning mikrobiologik faolligi aniqlandi.

**Materiallar va usullar.** Mavrakning mikroblarga qarshi faolligi zich ozuqa muhitida diffuziya usuli orqali test kulturalarda aniqlandi. Modifikatsion lunkali metoddan foydalanildi. Test kulturalarni zich ozuqa muhitga ekish gazon metodi orqali amalga oshirildi.

Mavrak (*salvia*) o'simligi suyuq ekstraktning antibakterial ta'siri diffuziya usuli bilan zich ozuqa muhitida test kulturalarining sezuvchnligi orqali aniqlandi. Izlanishlar uchun 24 soatli mikroorganizmlar kulturasidan foydalanildi. Kulturalar trepton soyali bulonda 24soat davomida o'stirildi. Mikroorganizm kulturasini zich ozuqa muhitiga gazon usuli bilan ekildi. So'ngra diametri 5mm bo'lgan chuqurchalar hosil

qilinib, tekshirilayotgan preparat namunasidan 100 mikrolitr solindi. So'ng petri kosachalarini 2-3 soat laminar box da saqlandi. Keyin 18-24 soat termostatda 37°ga qo'yildi. Natijalami hisoblash chuqurchalar atrofida paydo bo'lgan ingibitsiya zonalari orqali o'rganildi.

**Olingan natijalar.** Tekshirilgan mavrak o'simligining moyli ekstrakti bakteriyalarga nisbatan antibakterial ta'sir ko'rsatmadi. Spirtli ekstrakt esa *Bacillus subtilus* (18mm) va *Bacillus mycooides* (22 mm) kabi bakteriyalarga nisbatan antibakterial ta'sir ko'rsatdi. *Pseudomonas aeruginosa*, *E. coli*, *staphylococcus aureus* kabi bakteriyalarga nisbatan ingibitsiya zonalari kuzatilmadi.

**Xulosa.** *Salvia* o'simligi yer ustki qismidan tayyorlangan moyli ekstrakt bakteriyalarga nisbatan keskin faollikka ega emas.

Spirtli ekstrakt esa *Bacillus Subtillus* va *Bacillus Mycooides* kabi bakteriyalarga antibakterial faollikni namoyon qildi.

*E. coli*, *Ps. Aeruginosa*, *St. aureus* kabi bakteriyalarda antibakterial faollik namoyon bo'lmadi.

## ГРАФЫ БЫСТРОГО ПРЕОБРАЗОВАНИЯ УОЛША В ЗАДАЧАХ ПРИБЛИЖЕНИЯ ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Рахимов Б.С.

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии  
e-mail bahtiyar1975@mail.ru, телефон 935103845

Задача приближения функциональных зависимостей ортогональными системами базисных функций в конечном итоге приводится к задаче вычисления коэффициентов. Наличие быстрых алгоритмов вычисления спектральных коэффициентов, а также отсутствие в этих алгоритмах сложных с точки зрения аппаратной реализации операций умножения и деления позволяет использовать эти алгоритмы в задач цифровой обработки сигналов. Это – формула обратного дискретного преобразования в интегральном базисе Уолша. Аналогично формула прямого дискретного преобразования принимает вид

$$C_k = \prod_{i=0}^{n-1} \Delta f_i W_k(x_i)$$

т.е. коэффициенты Уолша, вычисленные для правых конечных разностей 1-го порядка от значений

аппроксимируемой функции  $f(x)$  в двоично-рациональных узлах  $x_i = \frac{i}{2^n}$ , являются одновременно и коэффициентами кусочно-линейного интерполянта – конечной суммы ряда по  $M$ -функциям. Алгоритм быстрого преобразования в базисе  $M$ -функций отличается от алгоритма быстрого преобразования Уолша (БПУ) тем, что применяется не к вектору отсчетов  $\{f_i\}$ , а к вектору конечных

разностей  $\{\Delta f_i\}$ . Другое отличие состоит в том, что постоянный множитель  $\frac{1}{2^n}$  присутствует в формуле обратного быстрого преобразования в базисе кусочно-линейных функций, а не прямого. Это свойство имеет определенный смысл, так как позволяет расширить диапазон значений модулей коэффициентов и тем самым повысить точность преобразования, поскольку имеем дело с многократно выполняемыми операциями суммирования – вычитания в фармакологических задачах.

Наибольшая экономия коэффициентов получается для функций типа фармакологических, тригонометрических, экспоненциальных и полиномиальных. Применительно к последним замечено «групповое» свойство коэффициентов Уолша, позволяющее простым способом вычислять коэффициенты высших порядков через значения малого числа старших коэффициентов.

# АЛГОРИТМ РАСЧЕТА ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В КУСОЧНО-КВАДРАТИЧНЫХ БАЗИСАХ ХАРМУТА

Рахимов Б.С.

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии  
e-mail bahtiyar1975@mail.ru, телефон 935103845

**Абстракт.** В работе на примерах аналитически установленных и экспериментально полученных зависимостей показаны преимущества разработанного алгоритма спектрального преобразования на основе кусочно-квадратичных функций Хармута.

**Ключевые слова:** граф, базовые функции, быстрые преобразования.

Одной из основных особенностей ортогональных базисов является наличие быстрых алгоритмов определения спектральных коэффициентов. Быстрые алгоритмы позволяют сократить количество арифметических операций и объем необходимой памяти. В результате достигается увеличение быстродействия при использовании ортогональных базисов для цифровой обработки сигналов.

Запишем формулы прямого и обратного быстрых спектральных преобразований для последовательности отсчетов сигнала  $\{x_i\}$  для любого допустимого ортогонального кусочно-постоянного базиса

$$C_k = \frac{1}{2^p} \sum_{i=0}^{n-1} x(i) \varphi(k,i) \quad (1)$$

$$X_1 = \sum_{k=0}^{n-1} C_k \varphi(k,i) \quad (2)$$

где  $k$  = номер спектрального коэффициента,

$i$  = номер элемента последовательности действительного отсчета.

На этом графике сплошные линии соответствуют операциям сложения, а штриховые линии – операциям вычитания. Входной отсчет обозначен  $X_0, X_1, \dots, X_{15}$ , а результаты -  $C_0, C_1, C_2, \dots, C_{15}$ .

Анализ методов вычисления коэффициентов в различных базисах показал, что быстрые алгоритмы вычисления коэффициентов существуют только для кусочно-постоянных и кусочно-линейных базисов. Алгоритмы расчета коэффициентов в кусочно-квадратичных базисах не разработаны.

Исследуется вопрос, как алгоритмы быстрых преобразований в базисах ортогональных кусочно-постоянных функций могут быть адаптированы для вычисления коэффициентов в кусочно-линейных базисах. применим только в том случае, если преобразуемые сигналы  $x(t)$  принадлежат метрическому пространству  $L_2 [0,1)$ .

Алгоритм расчета коэффициентов не обладает свойством быстрого преобразования и, кроме того, при необходимости получить значения коэффициентов в локализуемых базах можно использовать непосредственно операции с конечными разностями.

Для второго порядка основных функций коэффициенты быстрого преобразования Хармута  $C_2$  и  $C_3$  рассчитываются группировкой сумм итоговых разностей.

Остальные коэффициенты для  $P \geq 2, k \geq 4$  рассчитываются как сумма разностей следующего вида.

**Полученные результаты:** Проведена серия численных экспериментов по исследованию кусочно-квадратичных базисов. С использованием предложенного алгоритма расчета коэффициентов в кусочно-квадратичных базисах Хаара и Хармута, здесь определяется коэффициент сжатия  $K_c$ .

Также в результате исследований выявлено, что с увеличением количества отсчетной функции  $N$  значения коэффициентов уменьшаются по экспоненциальному закону.

**Вывод:** В результате исследования методов аппроксимации фармакологической функциональной зависимости показана их ограниченность в виде слабой сходимости, разрывности, достаточно низкой точности аппроксимации, необходимости большого объема памяти на факторы. Для преодоления этих ограничений показана необходимость перехода к кусочно-квадратичным базисам. Преимущества кусочно-квадратичных базисов: большая точность и хорошая гладкость аппроксимации по сравнению с кусочно-постоянными и кусочно-линейными базисами. Метод основан на использовании хороших дифференциальных свойств базовых сплайнов, аппаратно ориентирован

и позволяет использовать существующие алгоритмы быстрых преобразований в базисах ортогональных кусочно-постоянных функций для расчета коэффициентов как кусочно-линейных, так и кусочно-квадратичных базисов.

## **ЯЛАНҒОЧ ТОТИМ (RHUS GLABRA) ЎСИМЛИГИДАН АЖРАТИБ ОЛИНГАН GLABTAN БИОЛОГИК ФАОЛ МОДДАСИНИНГ УЛЦЕРОГЕН ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ**

**Рахмонова Г.Г., Абдуллажонова Н.Г.**

*ЎзР Фанлар академияси Биоорганик кимё институти  
e-mail: gulnorahmonova747@gmail.com, тел. (90) 982-27-10*

**Долзарблиги.** Ҳозирги кунда тиббиётда ва фармакологияда дори препаратларининг ён таъсирларини камайтириш мақсадида терапевтик дозани камайтириб, биологик самарадорлигини ошириш муаммолари долзарблигича қолмоқда. Ностероид дори воситалари яллиғланишга қарши, оғриқ қолдирувчи, иситма туширувчи ва қисман қон ивишига қарши муҳим хусусиятларга эга, бироқ бу синфга мансуб дорилар ошқозон ичак йўллариининг шиллик қаватига улцероген таъсир кўрсатиб, овқат ҳазм қилиш аъзоларида турли касалликларни келтириб чиқаради. Кўпгина олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотларда ўсимликлардан олинган ва иккиламчи метаболитларга оид бўлган полифенол бирикмалари антиоксидантлик, юрак қон томир касалликлари, яллиғланишга, диабетга қарши, шунингдек гастропротектив ва цитопротектив биологик фаолликларга эга эканлиги аниқланган. Ўсимликлардан олинган полифенол бирикмалар ошқозон ичак шиллик қаватини шикастланишлардан ҳимоя қилиб, ошқозон ичак яраларига қарши самарали таъсир кўрсатади. Институт олимлари томонидан ўзида таннин сакловчи *Rhus glabra* ўсимлигидан ажратиб олинган полифеноллар йиғиндисидан иборат бўлган Glabtan биологик фаол моддасининг улцероген таъсири каламушларда ўрганилди.

**Мақсад.** Каламушларда Glabtan моддасининг улцероген таъсирини ўрганиш.

**Усул ва услублар.** Тадқиқот учун тана массаси  $160 \pm 20$  г бўлган эркак жинсли оқ лаборатория каламушларидан фойдаланилди ва ушбу каламушлар олдиндан 16 соатга овқатсиз қолдирилди. Назорат гуруҳи ҳайвонларига дистилланган сув, қолган гуруҳларга Glabtan моддасининг сувдаги эритмаси терапевтик 50 мг/кг; 100 мг/кг ва  $1/5$  ЛД<sub>50</sub> (5150 мг/кг) 1030 мг/кг дозаларда бир марта махсус зонд орқали ошқозонга тенг ҳажмда юборилди. 3 соатдан кейин ҳайвонлар сўйилиб, ошқозонлари олинди. Ошқозон кичик эгрилиги бўйлаб кесилди ва изотоник эритмада ювилиб, Glabtan моддасининг улцероген таъсири 4 балли шкала бўйича баҳоланди.

**Олинган натижалар.** Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, Glabtan биологик фаол моддасининг 50; 100; 1030 мг/кг дозаларида ҳайвонлар ошқозонида гиперемия, қон кетиш, эрозия ва тешилиш ҳолатлари кузатилмади. Назорат гуруҳи каламушларига нисбатан статистик фарқларга эришилмади ва 0 балл – ошқозон учун зарарсиз деб баҳоланди.

**Хулосалар.** Шундай қилиб, Glabtan биологик фаол моддаси ўрганилган дозаларда каламушлар ошқозонига улцероген таъсир кўрсатмади.

## **ПРИКЛАДНЫЕ ЗАДАЧИ ПО ПРЕДМЕТУ ФАРМАКОЛОГИЯ В МАТЕМАТИЧЕСКОЙ СТАТИСТИКЕ**

**Саидов А.Б.**

*Ургенский филиал ТУИТ имени Мухаммада ал-Хоразми  
e-mail ootabek2001@mail.ru phone 997463801*

Цель вероятностных методов в том, чтобы, минуя слишком сложное исследование фармакологии отдельного случайного явления, обратиться непосредственно к законам, управляющим массами таких явлений. Теория вероятностей - раздел высшей математики, изучающий закономерности массовых случайных явлений.

Приведем несколько примеров случайных явлений.

1. Производится ряд испытаний фармакологических препаратов определенного типа, например, таблетки, на длительность безотказной действию. Результат испытания от одного раза к другому не остается постоянным.

2. Самолет совершает полет на заданной высоте; теоретически он летит горизонтально, равномерно и прямолинейно. Фактически полет сопровождается отклонениями центра массы самолета от теоретической траектории и колебаниями самолета около центра массы.

3. Рассматривается непрерывная работа ЭВМ между двумя очередными сбоями в решении задачи. Все контролируемые условия работы ЭВМ: температура, влажность, напряжение питания, характер решаемой задачи - остаются неизменными.

Все приведенные примеры рассмотрены здесь под одним и тем же углом зрения: подчеркнуты случайные вариации, неодинаковые результаты ряда опытов, основные условия которых остаются неизменными. Эти вариации всегда связаны с наличием каких-то второстепенных факторов, влияющих на исход опыта, но не заданных в числе его основных условий. Основные условия опыта, определяющие в общих и грубых чертах его протекание, сохраняются неизменными; второстепенные – меняются от опыта к опыту и вносят случайные различия в их результаты.

С теоретической точки зрения те факторы, которые мы условно назвали «случайными», в принципе ничем не отличаются от других, которые мы выделили в качестве «основных». Такие методы и разрабатываются в теории вероятностей. Ее предметом являются специфические закономерности, наблюдаемые в случайных явлениях. Практика показывает, что, наблюдая в совокупности массы однородных случайных явлений, мы обычно обнаруживаем в них вполне определенные закономерности, своего рода устойчивости, свойственные именно массовым случайным явлениям.

Методы теории вероятностей не отменяют и не упраздняют случайности, непредсказуемости исхода отдельного опыта, дают возможность предсказать, с каким-то приближением, средний суммарный результат массы однородных случайных явлений.

Изучение этих законов позволяет не только осуществлять прогноз в области случайных явлений, но и целенаправленно влиять на ход этих явлений, контролировать их, ограничивать сферу действия случайности, сужать ее влияние на практику.

## **QUSHTORON O‘SIMLIGI QURUQ EKSTRAKTINING YALLIG‘LANISHGA QARSHI TA‘SIRI**

**Saydalieva F.A., Shiltsova N.V., Sa‘dullaev S.A.**

*Toshkent farmatsevtika institute*

*el. pochta: saidalievaferuza73@gmail.com tel. (90)-980 91 13*

**Dolzarbliqi.** O‘zbekiston hududida o‘sadigan 4500 dan ortiq o‘simliklar ichida 500 ta o‘simlik turlari qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash va ularni oldini olish maqsadida qo‘llanilib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda ularning 100 tasigina zamonaviy tibbiyotda xam keng foydalanilmokda.

